

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida**

**UDK 78:371,3**

**AKRAMZODA MIRZOANVAR**

**“Musiqqa ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari”**

**(pedagogika va san’at kollejlari misolida)**

**5A111101-Musiqiy ta’lim mutaxassisligi**

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN**

**DISSERTATSIYA**

Magistrlik ishi “Musiqqa ta’limi” kafedrasi 2015 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_ yig`ilishida ko`rib  
chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Prof. A.Ergashev\_\_\_\_\_**

**“Pedagogika” fakulteti**

**“Musiqqa ta’limi” kafedrasi mudiri dot.**

**E.K.Jalilov\_\_\_\_\_**

**SAMARQAND -2016**

# **Pedagogika fakulteti « Musiqa ta'limi» kafedrası majlisining**

## **10-bayonnomasidan**

### **KO'CHIRMA**

Samarqand  
2016 yil -may.

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 18 nafari

### **KUN TARTIBI**

«Musiqa ta'limi» kafedrası 2015 – 2016 – o'quv yilida bajarilgan magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida

#### **SO'ZGA CHIQDI :E.K.Djalilov**

**ESHITILDI:** 2015 – 2016 – o'quv yilida bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi bilan majlis ahlini kafedra mudiri E.K.Djalilov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi: 2015-2016 Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistr bitiruvchi kurs talabasi Akramzoda Mirzoanvar “Musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari” (pedagogika va san'at kollejlari misolida) mavzusida ishini yozib tayyorladi.

Ilmiy rahbari professor A.Ergashev

Talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. So'zni magistrant Akramzoda Mirzoanvarga bersak u o'zining dissertatsion ishining mazmuni bilan tanishtiradi.

Akramzoda Mirzoanvar ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng talabaga professor A.Ergashev va dots.I.Qudratovlar savollar berishdi: Akramzoda Mirzoanvar berilgan savollarga javob qaytardi.

Akramzoda Mirzoanvarning mavzu bo'yicha chiqishi va savol – javoblardan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK ga himoya qilishga tavsiya etish haqida fikr – mulohazalar bildirildi.

## **Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi**

### **QAROR QILDI:**

1. «Musiqa ta'limi» kafedrası Musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti Akramzodaning “Musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari” (pedagogika va san'at kollejlari misolida) mavzusida ishini dissertatsiya talablariga javob beradi deb hisoblansin va magistrlik ishi Yak.DAKga himoya uchun tavsiya etilsin.
2. Akramzoda Mirzoanvarning ushbu magistrlik dissertatsiya ishiga (ichki) taqrizchi deb «Musiqa ta'limi» kafedrası katta o'qituvchisi J.Kazimov, tashqi taqrizchi sifatida Ozbekiston Bastakorlari uyushmasi a'zosi, kompozitor M.Muxtorov belgilansin.
3. «Musiqa ta'limi» kafedrası ushbu qarorni tasdiqlashni fakultet ilmiy kengashidan so'ralsin.

**Majlis raisi:**

**E.K.Djalilov.**

**Kotiba:**

**N.Karimova**

**SamDU, musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti Akramzoda Mirzoanvarning  
“Musiqqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik  
texnologiyalardan foydalanish uslublari” (pedagogika va san'at kollejlari  
misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

**X U L O S A S I**

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifa.

Ana shu kesimda Akramzoda Mirzoanvarning “Musiqqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari” (pedagogika va san'at kollejlari misolida) nomli mazkur ilmiy-tadqiqot ishida musiqqa darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar shakllantirishning tamoyillari o'rganilib, tahlil qilgan. Ishning Musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'rni deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda milliy mutafakkir allomalarimizning musiqqa doir qimmatli fikrlari keltirilgan. CHunonchi, ushbu olimlarning musiqiy qarashlari bugungi kun nuqtai nazaridan ham nechog'lik ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan

Ishning 2-bobi Musiqqa ta'limi taraqqiyotida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni deb nomlanibzamonaviy pedagogik vositalarni tadqiq etishga qaratilgan ta'lim shakllari, usul va vositalari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Ishning 3-bobi Musiqqa darslarida pedagogik mahoratni qo'llash imkoniyatlari shakli va uslublari esa magistrant milliy musiqqa ma'naviy

barkamollikning vositalaridan biri ekanligi va darslarda uni yanada yuqori saviyada namoyon bo'lishiga oid qator fikrlarni mujassamlashtirgan. Qolaversa, ushbu bobda dissertatsiya yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari taqdim etilim, umumiy xulosa va tavsiyalar ham o'rin egallagan

Bir so'z bilan aytganda mazkur tadqiqot ishi musiqa darslarini yuqori darajada olib borilishiga bag'ishlangan qiziqarli manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbularni inobatga olgan holda, Akramzoda Mirzoanvarning dolzarb mavzuni yoritishga qaratilgan mazkur izlanishini ijobiy baholab, ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**SamDU“Pedagogika” fakulteti  
“Musiqqa ta'limi” kafedrası professori,  
O'zbekiston Xalq artisti:**

**A.ERGASHEV**

**SamDU, musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti Akramzoda Mirzoanvarning  
“Musiqqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik  
texnologiyalardan foydalanish uslublari” (pedagogika va san'at kollejlari  
misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

O'zbek musiqqa ijodiyoti serjabha va ko'lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an'analarga ega bo'lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi uslublar bilan boyib bormoqda. Musiqqa – tafakkurning ulkan manbai hisoblanib, musiqasiz bolaning mukammal aqliy rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. Musiqqa eng yuksak ma'naviya tarbiya vositasi bo'lib, xizmat qiladi.

Demakki, asrlar osha bizgacha etib kelgan ardoqli navobaxsh milliy merosimizni targ'ib va tadqiq etish tamoyiliga tayangan holda dissertatsion ishda tadqiq etilgan ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari shakllantirish masalasi nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Taqdim etilayotgan ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ahamiyati, o'rganilganlik darajasi kabi jihatlar haqida to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotchi musiqqa ta'limi taraqqiyotida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va vositalarni tadqiq etishga qaratilgan ta'lim shakllari, usul va vositalari haqida mulohazalar bayon etgan. Shuningdek, musiqqa darslarida pedagogik mahoratni qo'llash imkoniyatlari shakli va uslublari magistrant tomonidan taqdim etilgan. Qolaversa, dissertatsiya yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari taqdim etilim, umumiy xulosa va tavsiyalar ham o'rin egallagan

Dissertatsiya quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

1. O'quvchilarni musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish,

2. Musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish,
3. Ularni musiqa xususan milliy musiqaga qiziqishlarini tarkib toptirish,
4. Darslarda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirish,
  1. Pedagogik texnologiya tushunchasi
  2. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi
  3. Yoshlarni milliy musiqiy an'analar vositasida tarbiyalashning shakllari
  4. O'quvchilarni milliy musiqiy merosimizga qiziqishlarini shakllantirishni zamonaviy tamoyillari, haqida tushunchalar taqdim etilgan.

Bir so'z bilan aytganda mazkur tadqiqot ishi musiqa darslarini yuqori darajada olib borilishiga bag'ishlangan qiziqarli manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbularni inobatga olgan holda, Akramzoda Mirzoanvarning dolzarb mavzuni yoritishga qaratilgan mazkur izlanishini ijobiy baholab, ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**SamDU "Pedagogika" fakulteti**  
**"Musiqa ta'limi" kafedresi**  
**katta o'qituvchisi**

**J.KAZIMOV**

**SamDU, musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti Akramzoda  
Mirzoanvarning "Musiqqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari" (pedagogika va san'at  
kollejlari misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

Bugungi kunda yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini fivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish vat tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Zero bugungi zamonaviy ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi va

mazkur tanlangan mavzuni to‘laqonli ravishda dolzarb mavzu sifatida e‘tirof etishga asos bo‘la oladi.

Mazkur magistrlik ishi ham aynan shu dolzarb masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif tadqiqot jarayonida mavzuga oid adabiyotlardan unumli foydalangan va sinov – tajriba ishlari olib borish jarayonida to‘plagan tajribalari haqida bayon qiladi.

Muammo mazkur bitiruv ishida o‘z yechimini tutgan. Ilmiy ish badiiy jihatdan va ilmiy jihatdan badiiy til bilan yozilgan va mazkur ish va uni bajarish bo‘yicha “Nizom talablariga” javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Bastakorlari  
uyushmasi a‘zosi, kompozitor**

**M.I.MUXTOROV**



**Mavzu: “Musiqi ta’limi samaradorligini oshirishda zamonaviy  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari”  
(pedagogika va san’at kollejlari misolida)**

**MUNDARIJA**

<b>Kirish.....</b>	<b>10</b>
<b>I BOB: MUSIQIY MADANIYATNING MA’NAVIY HAYOTDAGI O‘RNI.....</b>	<b>15</b>
1.1. Milliy musiqiy pedagogika tarixidan .....	15
1.2. Barkamol avlod tarbiyasida musiqaning ahamiyati .....	22
1.3. I-bob yuzasidan xulosa .....	33
<b>II-Bob: MUSIQA TA’LIMI TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI .....</b>	<b>36</b>
2.1. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi .....	36
2.2. Innovatsion-pedagogik texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish .....	46
2.3. II-bob yuzasidan xulosa .....	55
<b>III-BOB: MUSIQA DARSLARIDA PEDAGOGIK MAHORATNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI SHAKLI VA USLUBLARI .....</b>	<b>57</b>
3.1. O‘zbekistonda zamonaviy musiqiy pedagogik tamoyillarning joriy etilishi ..	57
3.2. Musiqi darslarida o`qituvchning musiqiy pedagogik mahorati va tajriba sinov ishlari natijalari.....	66
3.3. III-bob yuzasidan xulosa .....	77
<b>Umumiy xulosa.....</b>	<b>78</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>80</b>
<b>Ilovalalar .....</b>	<b>82</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Respublika Prezidenti ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtaiy nazardan yondoshib, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi".

Mas'uliyatli va murakkab bu vazifa, davlatning boshqa tadbirlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining 9sesiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni (1997 yil 29 avgust) ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Bu dasturni tarkibiy qismi sifatida ta'limning yangi modeli yaratiladi. Prezident tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiya modelini amaliyotga tadbiiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan, Ijtimoiy zarurat maxsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatga erishish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda ahborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Ahborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni taxlil etish, qayta ishlash, nazariy jixatdan umumlashtirish, hulosalash hamda o'quvchiga etkaza berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etiga xizmat qiladi. «**Pedagogik texnologiya** – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir.» SHunga ko'ra dissertatsiya ishimiz mavzusi "**Musiqa ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari**" (pedagogika va san'at kollejlari misolida) deb

nomlanadi. Zero bugungi zamonaviy ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi va mazkur tanlangan mavzuni to'laqonli ravishda dolzarb mavzu sifatida e'tirof etishga asos bo'la oladi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Milliy musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, boy dunyoqarashi va kelajak kamolotining belgilovchi mezonlardan biri sifatida doimo ardoqlanib kelinadi. Buyuk Sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali CHangiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, ijroviy uslublari, qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mavzuni yoritishda biz pedagog olim hamda musiqashunoslarning chop etilgan bir qator kitoblaridan foydalandik. Xususan o'zbek olimlari J.Yo'ldashev G'.Usanov S.A.Talipov, K.Usmonboeva, R.J.SHomammedov, D.Omonullaev, D.Ikramova, D.Soipova va boshqalarning ilmiy risolalarida biz ko'targan mavzuning ayrim jihatlari tilga olingan. Ammo, biz taqdim etayotgan dissertatsiyada O'zbekistonda zamonaviy musiqiy pedagogik tamoyillarning joriy etilishi kabi jihatlar yangicha zamonaviylik kesimida tadqiq etilmoqda

**Tadqiqotning metodologik asosi:** Ma'lumki, kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlaribilan harakati davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi. Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va hususiy maqsadlari bo'ladi, unchunin ularning eng umumiy, umumiy va hususi metodologik asoslari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi qonun", hamda O'zbekistonda milliy musiqiy ta'limni rivojlantirish va takomillashtirishga oid qaror va farmoyishlar, me'yoriy xujjatlar, I.A.Karimovning mavzuga oid nutqlari, shuningdek, musiqaga doir turli

adabiyotlar, musiqa nazariyasi va metodikasiga oid manbalar, pedagogik tajribada tan olingan va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilib, mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganish, bugungi kun talablari yuzasidan dolzarb bo'lgan mavzuga oid maqola va tarjima ishlaridagi ilg'or fikrlar, musiqashunos, san'atshunos pedagog-olimlarning tegishli asarlari tajribalarni tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini mukammallashtirish va statistik xulosalash. Shuning tadqiqot metodi sifatida belgilandi. Tahlil, ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlari tadqiqotning uslubiy tayanch asosi bo'lib xizmat qildi.

### **Disertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Disertatsion tadqiqot Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Shuningdek, A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining ilmiy-tadqiqot ish rejasi doirasida, Musiqa ta'limi kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari bosh mavzusidan kelib chiqqan holda rejalashtirildi.

**Tadqiqot maqsadi.** O'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari rivojlantirish bilan birga musiqa darslarida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi va ta'lim samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etishdir.

### **Tadqiqotning vazifalari.**

Dissertatsiya quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

5. O'quvchilarni musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish,
6. Musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish,
7. Ularni musiqa xususan milliy musiqaga qiziqishlarini tarkib toptirish,
8. Darslarda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirish,

**Tadqiqot obyekti:** Pedagogika va san'at kollejlari musiqa darslarida o'quvchilarning musiqani badiiy idrok etish, qo'shiq kuylash va ijodkorlik malakalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublarini o'rganish pirovard maqsad hisoblanadi. Binobarin, x.A.Abdurasulov

nomidagi Samarqand san'at kolleji va Samarqand pedagogika kollejlarida tadqiqot, tajriba sinov ishlari olib borildi.

**Tadqiqot predmeti:** o'quvchi-yoshlar san'at vositasida tarbiyalashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi mazmuni, shakli, vositalari va metodlari.

**Tadqiqot metodlari:** Mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalarni o'rganish, bugungi kun talablari yuzasidan dolzarb bo'lgan mavzuga oid maqola va tarjima ishlaridagi ilg'or fikrlar, musiqashunos, san'atshunos pedagog-olimlarning tegishli asarlari tajribalarni tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini mukammallashtirish va statistik xulosalash. Magistrlik ishining tadqiqot metodi sifatida belgilandi. Prezident I.A.Karimovning badiiy ijodiyot xususidagi, ayniqsa, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar ustivor tamoyil tarzida belgilanib, musiqiy ta'lim uslublarining pedagogik-psixologik va falsafiy jihatlarini e'tiborga olinib, empirik miqyosda kuzatish, tahlil, ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlari tadqiqotning uslubiy tayanch asosi bo'lib xizmat qildi.

**Himoyaga olib chiqilgan holatlar:**

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi
2. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi
3. Yoshlarni milliy musiqiy an'analar vositasida tarbiyalashning shakllari
4. O'quvchilarni milliy musiqiy merosimizga qiziqishlarini shakllantirishni zamonaviy tamoyillari,
5. Musiqiy merosimizga qiziqishlarini shakllantirishni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati

**Ishning ilmiy yangiligi:** Tadqiqot ishida bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy texnologiyalar va ularning musiqa ta'limi tizimida qo'llanilishi kabi jihatlar yangicha kesimida taqdim etilmoqda.

Shuningdek, pedagogik mahoratini amalga oshirish bo'yicha chop etilgan nazariy va adabiy manbalar kuzatilib, ularni analitik tahlil qilish barobarida bir qator yangi qarashlar joriy etildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy farazi:**

Agar ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etilsa

O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

Buning uchun

- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- Musiqiy merosni tadqiq etishning yangidan-yangi shakllari amaliyotga kiritilishi,
- Interaktiv audio va video lavhalarda nisbatan sodda va tushunarli tilda bayon etilgan izohlarning bayon etilishi darkor

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya hajmi sahifa bo'lib, kirish, 3 bob, 6 paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iboratdir.

## **I BOB: MUSIQIY MADANIYATNING MA'NAVIY HAYOTDAGI O'RNI**

### **1.1. Milliy musiqiy pedagogika tarixidan**

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar qatori musiqa madaniyatida ham juda katta o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbek xalq madaniyati va maonaviyati tarixini uning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa madaniyati tarixini o'rganishga alohida ehtibor berila boshlandi.

Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishini, komil inson shaxsining shakllanishini milliy musiqa merosimizsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, milliy mustaqillik tufayli xalqimizni ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand etish, ma'naviy qadriyatlarmizni tiklash, keng targ'ib etish imkoniga ega bo'ldik.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari Avesto yodgorligi bilan bog'lanib ketadi. Zardushgox dastlab badixa yo'li bilan ijro etilgan qo'shiqlardir. Avestoning marosimiy qismlari (yasna), Axuramazda va boshqa mahbudlarga bag'ishlangan madhiyalar ham aslida muayyan ijro yo'llari bo'lgan yakkaxon va ommaviy qo'shiqlardir. Panjikent, Ayritom, Tuproqqalao (Xorazm) kabi yodgorliklaridagi III- VIII asrlarga oid musiqa asboblarning suratlari va bo'rtma tasvirlari bizgacha etib kelgan.

Qadimgi turklarning ko'p marosimlari qo'shiq orqali amalga oshirilgan. Bunday anoanalarning musiqa san'atisiz rivoj topishi mumkin emas edi. Miloddan oldingi II asrda Xun davlatida xoqonning maxsus cholg'ulari bo'lganligi haqida Xitoy tarixiy manbaalarida ma'lumotlar bor. Xunlarda eng ommabop cholg'u asboblari qatoridan chinqobus, chang, nay kabi asboblarning muhim o'rin olgan.

Adabiyotning yozma shakli bilan bir qatorda og'zaki adabiyotning rivojida qobus cholg'u asbobi alohida o'rin egallaydi. Markiziy Osiyo turkiy

xalqlarining kundalik turmush tarzi ijtimoiy hayotning tashkiliy shakllari «Soʻz - udum va urf - odatlar - musiqa» tizimi bilan chambarchas bogʻliq tarzda rivojlangan. VI – VIII asrlarda yaratilgan xalq qoʻshiqlari buning dalilidir. Mahmud Qoshgʻariy «Devonu lugʻatit-turk» (XI asr) asaridagi toʻrtliklarning koʻpchiligi qadimgi turk davriga oid xalq qoʻshiqlari boʻlib, musiqa joʻrligida ijro etilgan.

Turkiston oʻrta asr musulmon madaniyatida koʻplab musiqa nazariyotchilarining paydo boʻlishi bu erda musiqa madaniyati anoanalarining qadimiyligidan dalolat beradi. Ayrim manbaalarning (masalan, al - Isfaxoniy) koʻrsatishicha, YAqin SHarq, xususan, arab musiqa madaniyatining oʻrta asrlardagi rivojiga soʻgʻd, turk va eron sanʼatkorlari katta taosir koʻrsatganlar. Maolom boʻlishicha, xalq cholgʻulari ham oʻz tarixiga ega. Tarixiy manbaalarga tayanib, al-Isfaxoniy dastlabki musiqa cholgʻulari miloddan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilgan.

XX - asrning 30-40 yillari S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar Oʻrta Osiyo madaniyatini, shu jumladan, xalq cholgʻularini oʻrganishda qimmatli maolumotlar berdi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholgʻular, urma zarbli cholgʻular, chalinayotgan mashshoqlar tasvirlangan suratlardir. Bular: Ayroton, Tuproqqalao, Afrosiyob kabi shaxarlarda topilgan sopol idishlardagi mashshoq xaykalchalaridir. Ulardan turli xil musiqiy cholgʻular: lyutnya, tanbur, nay, surnay, karnay, doirasimon cholgʻularda mashq qilish holati oydin tasvirlangan. Keyinchalik, sharqlik bobokalon olimlarimiz: Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Sayfiddin Urmoviy, Abduqodir Marogʻiy, Qutbiddin Ash SHeroziy va boshqalar oʻz risolalarida xilma-xil cholgʻular haqida ibratli mulohazalar bildirishgan. Inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimligi deb hisoblaganlar.

Buyuk sharq mutafakkirlarining xalq cholgʻularining oʻrganishga bagʻishlangan qimmatbaho merosi tarixiy ahamiyatga ega. Ulardan eng



qimmatligi Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur «Musiqā xaqida katta kitob» (Kitob al musiqā al kabir) asari ulkan ahamiyatga ega. Farobiyning oʻzi ham ijrochi sifatida shuhrat qozongan. Kitobning ikkinchi qismi boshidan oxirigacha oʻsha davrda qoʻllanilgan musiqā cholgʻulariga bagʻishlangan. Bu bobda: lyutnya, ud, tanbur, nay, rubob, chang, shohruh, qonun kabi cholgʻular izchil va batafsil taoriflanadi.

Farobiy torli muzrobli lyutnya cholgʻusini oʻsha davrda keng tarqalgan cholgʻu deb hisoblaydi. Lyutnya oʻziga xos muzrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (ladlar) joylashgan IX – X asrlarda lyutnya arabcha nomlanib, ud nomini oladi. Farobiy risolasida oʻzi yashagan davrda mavjud boʻlgan rubob cholgʻusini ham batafsil tavsiflaydi. Oʻsha davrda sharqning taniqli mutafakkiri, Safuddin Urmaviy musiqā ilmiy tizimini rivojlantiradi. U usta ud cholgʻuchi, xonanda va mohir bastakor sifatida ham mashhur boʻlgan. Ud cholgʻusida olib borgan tajribalariga tayanib olim oʻz nazariy qoidalarini bayon etadi. Urmaviyning «Taqovodorlik kitobi»da ud – taʼrifi quyidagi soʻzlar bilan boshlanadi: «Bilingi, cholgʻular orasida ud deb ataluvchi eng mashhur va eng zamonaviydir». Xulosa qilib aytganda, tarixiy risolalarda tasviriy sanʼatda va adabiy merosda ildizlari uzoq oʻtmishga borib taqaluvchi musiqā cholgʻularining asosiy turlari haqida boy materiallar berilgan. Musiqā cholgʻulari yasovchi mohir ustalar: asrimiz boshlarida yashab ijod etgan usta Usmon Zufarov, usta Roʻzmat Isaboev va ularning qator shogirdlarida, xalq ustalari bir parcha yogʻochga, qamishga, suyakka yangi hayot ato etdilar. Ular yaratgan cholgʻu – asboblari hozirgi kunda ham keng qoʻllanilmoqda, xalqimizga xizmat etib, musiqā sanʼatimiz taraqqiyotiga oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda.

Buyuk Turon zaminida musiqā madaniyati va ijrochilik sanʼatining rivojlanishi qadim zamonlarga bogʻlanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad

Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali CHangiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san’atkorlikning qoidalariga bag‘ishlangan alohida bob o‘rin olgan.

Zaminimizda o‘tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o‘xshash sozlar, toshlarga o‘yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o‘lkamizda ijrochilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. SHarq xalqlarining musiqiy merosi bo‘lmish Maqom, Mo‘g‘om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san’atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O‘rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o‘n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo‘lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg».

YAna bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo‘lsak, ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek Tarag‘ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o‘n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog‘iy, Xoja Sayfidin Abdulmo‘min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so‘zlariga qaraganda, avvalda maqomlar ettita bo‘lg‘on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». YAna ushbu risolada ulug‘ bobomiz Ulug‘bekning o‘zi tanbur va nog‘orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «SHodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig‘» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o‘tadi.

YUqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo‘llari sayqallangan ko‘rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo‘llari ham o‘z o‘rnini topganligi ehtimoldan xoli emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «SHashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o‘zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo‘lsa, Farg‘onaning «CHor maqom»i (To‘rt maqom), «Dugoh Husayniy»ning ettita yo‘li, «CHorgoh»ning oltita ijrochilik yo‘li, «SHaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo‘li hamda «Bayot» yo‘llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Tarixiy manbalarga murojat etadigan bo‘lsak musiqiy madaniyatimiz uzoq tarix bilan bog‘langanligini guvohi bo‘lamiz. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatura ko‘rinishidagi shohlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligimizning sadolari asrlar osha bizga etib kelganligidan dalolat beradi.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri bo‘lganligi manbalarda ko‘rsatib o‘tiladi. Lekin X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib bahzilari ustida to‘xtab o‘tishni lozim topdik. VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O‘rta-Osiyolik Faxlobod Borbad xaqida ma‘lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo‘q san’atkor bo‘lganligi ehtirol etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo‘lganligi haqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo‘lganligini aytib o‘tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo‘lganligini yozadi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o‘z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo‘lganligi, ayniqsa «Bo‘yi juyi muliyon» shehrini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo‘lyozmalarda ko‘rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallaev qadimiy ko‘lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog‘ora, qo‘biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag‘ona, shaypur, surnay, karnay, arg‘unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg‘u asboblari o‘lkamizda keng tarqalganini va o‘n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko‘rsatib o‘tgan.

O‘sha davrning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi va qo‘shiqlari, bayram va marosimlaridagi mehnat qo‘shiqlari, qaxramonlik qo‘shiqlari haqida namunalar berilgan bo‘lib, o‘sha zamonda qo‘shiqchilik janri rivoj topganini ko‘rsatadi.

X-XII asr musiqa va ashula san‘atiga doir bayon etilgan noyob ma‘lumotlar YUsuf Xos Xojibning « Qutadg‘u bilig» asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug‘ kashfiyotchisi Abu Nasr Al Forobiy (873-950) bo‘lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida ovro‘pa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o‘z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va «Qonun», «G‘ijjak» kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan «Kitab ul musiqa al- kabir» («Katta musiqa kitobi»), «Kalom fakultet-il musiqi» («Musiqa haqida so‘z»), «Kitob fi ixsoal ibkoh» (kuylar tasnifi haqida kitob»), «Kitob fi-n naqra muzofa ilal ibqoh» (Ritmga qo‘shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob») kitoblari ma‘lum. Akademik Muzaffar Xayrullaevning «Forobiy» asarida uning musiqa ijodi haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi.

YAna bir ulug‘ alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1931 yilda Maxmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag‘ishlangan kitobida Abu-Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to‘g‘risida ma‘lumot beradi. YAna shu kitobda ulug‘ olimning musiqa haqidagi «Kitob un

najot» asarining arabchadan nemischaga tarjimasi berilgan. Abu Ali Ibn Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib qonun»), «Kitob ul shifo» («SHifo kitobi»), «Donishnoma», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqa to'g'risida» «SHifo»da berilgandan boshqa risola») kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. YUqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga e'tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o'z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o'sha davrda musiqa san'atining yuksaklikka erishganini ham ko'rsatadi. Abu Ali Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, otasi Abdulloh asli Balxlik davlatmand va madaniyatli kishi bo'lib, o'g'lini yoshligidan qobiliyati, istehdodini, zehni ko'ra bilgan holda uning o'qishiga katta e'tibor beradi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va YUnon kitoblarini tinmay qiroat qiladi. 999 yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, Urganchga kelib Xorazm olimlari qatoridan joy oladi. Keyinchalik Mahmud G'aznaviy tazyiqi ostida ko'p shaharlarni kezib 1037 yilda Hamodonda vafot etadi.

X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Ibn Al Xorazmiy musiqa haqida asar yozib, o'zining «Mafotix ul ulum» deb atalgan qomusiy asariga asosiy boblardan qilib qo'shgan. Xorazmliklar qadimdan musiqa va raqs hamda qiziqchilik shaydosi bo'lganliklariga Alisher Navoiy ham shohidlik beradi. SHundan ko'rinadiki, qadimgi zamonlardan beri musiqiy san'at dunyosida Xorazm yuksak o'rinda bo'lgan. XI-asrda dunyoga kelgan «Qobusnoma» asarining 36-bobi ham musiqa san'atiga bag'ishlangan bo'lib, unda kitob muallifi Kaykovusning cholg'uchi va hofizlarga qanday kuy tanlash va qachon, qaerda ijro etish hamda san'atkor odobi va madaniyatlari to'g'risidagi nasihatlarini, o'sha davrda musiqiy san'atning taraqqiyoti yuksak darajada ko'tarilganligidan dalolat beradi.

XII asrdan boshlab Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqa nazariyalari zamirida mahalliy tillarda musiqa fani haqida qator asarlar maydonga kela

boshladi. Xorazmlik olim Ar-Roziy o'zining XII -asrda yozgan «Jomehul -ulum» qomusining bir bo'limini musiqa faniga bag'ishlagan. XIII - asrda Muhammad Ibn Mahsud ash- SHeroziy (1236-1310) «Dar ilmiy musiqiy», Sayfutdin Abdul Mo'hmin al Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) ning «Risolatun SHarafiya» kabi asarlari ham musiqaga bag'ishlangan. Musiqa ilmi bilan o'rta asr olimi Muhammad al Amuliy ham shug'ullangan Zamonamizning atoqli musiqashunos olimi san'atshunoslik doktori Ishaq Rajabov (1927-1982) XIII- asrda maydonga kelgan al-Urmaviyning «Risolatun SHarfiya», Ash-SHeroziyning «Dar ilmiy musiqiy» asarlariga ilova qilingan va ud sozi uchun yozilgan qadimiy musiqa notalarini shartli belgilar bilan hozirgi zamon notasiga o'girishda tajribalar o'tkazdi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu tadqiqotda XIII-asrda notaga olingan qadimiy musiqa tuzilishini hozirgi zamon o'zbek kuylariga juda yaqinligi aniqlangan.

Tarix zarvaraqlariga nazar solganimizda ulug' bobomiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san'at rivojlanganligini guvohi bo'lamiz. Amir Temur o'z tuzuklarida o'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir. Ularning davlat xonaga keltirib o'rdada o'rinlar belgilangan, deb tahriflaydi. YOzma manbalarda yana shu davrning yirik bastakor sozandalaridan Sayfitdin Nayi va Qutbi Nayi, Said YUSuf (qo'buzz), Darvish bek kabi musiqa sohasida mashxur bo'lgan san'atkorlar qalamga olinadi. Movarounnahr madaniyati va san'ati ayniqsa Ulug'bek (1394-1449) zamonasida yuksaklikka ko'tarildi.

Professor Abdurauf Fitrat Ulug'bek davrida Samarqandda ijod qilgan Darvish Axmadiy Qonuniy, Sulton Ahmad Nayi, musiqiy risola yozgan qorako'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos olim mavlono Sohib Balhiy, SHahrisabzlik bastakor Abul Baraka, mashhur sozanda Navoiyning muallimi Xo'ja YUSuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad ali G'aribiylar kabi o'sha zamonning mashhur san'atkorlarini qalamga olib o'tadi. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvish Alining qalamiga mansub «Tuhfatus surur» asarida aytilishicha Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqiy olimlardan sanalgan.

Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mugʻanniy (sozanda) faslida mutrib va mugʻanniylar ijrolarini taʼsirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida soʻz yuritadi va nay, gʻijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qoʻbuz, qonun, chagʻona, kabi musiqa asboblarni fazilatlarini ham tahriflaydi. «Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuq changi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod kabi xalq qoʻshiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida maʼlumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta eʼtibor bergani namoyon boʻladi. Bu asarda Mavlono Ali Oʻohning tengi yoʻq sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xoʻja SHahobiddin, Abdullomarvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini koʻrsatib oʻtadi. Navoiy «Xolati Pahlavon Muhammad» asarini oʻz davrining buyuk bastakori, oʻn ikki maqomning takomillashuvida katta hissa qoʻshgan Pahlavon Muhammadning musiqa ijodiga bagʻishladi.

Oʻsha davr musiqa madaniyati haqida Zahriddin Muhammad Bobur ham qimmatli maʼlumotlar bergan. Uning yozishicha ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvoridiy, Xusayn Udiy, Darvishbek, YUusuf oʻgʻloqi (qoʻbiz), Gʻulom SHodi, SHayxi nayi, SHayx quli (gʻijjak)lar Navoiyning yordami va gʻamxoʻrligi tufayli shuhrat topganlar. Zayniddin Vosifiy oʻzining «Badoehul vaqeh» asarida Navoiy zamonasida xalq sanʼatini katta rivoj topgani toʻgʻrisida yozib, Hasan Nayi, Ahmad Gʻijjakiy, Ali Kuchak Tanburiy, Hasan Boloboniy, Mirzo Bayram, Gʻiyosiddin kabi sozanda va bastakorlarni nomlarini keltiradi.

XIV asr oxiri XV asrda Fargʻona, Toshkent, Buxoro, Kesh va Xeva kabi Movarounnahrning boshqa viloyat va shaharlarida ham madaniy hayot, jumladan musiqiy madaniyat rivoj topdi. Fargʻona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) oʻz poytaxti boʻlmish Andijonga sanʼat ahlini yigʻishga harakat qilgan. Oʻsha davr sanʼat ravnaqi haqida «Boburnoma»da maplumotlar beriladi. Bobur oʻsha davr Andijon musiqiy muhitining ustozlaridan Xoʻja YUusufni, Vosidiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda SHoh Husaynni eslab oʻtadilar.

XVI-XII asr musiqiy san'atning taraqqiyotiga nazar solsak, o'rtadagi bir qancha uzilishlardan so'ng, oldinga siljishlar ro'y berganini guvohi bo'lamiz. XVI-asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmitdin Kavkabiy (1576 yilda vafot etgan) rahbarligida o'n ikki maqom yanada mukammalashdi. Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotida tahsil ko'rgan mavlono Najmitdin Kavkabiy Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu erda o'z maktabini yaratib, o'zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo'ja Muhammad Mavloni Rizo Samarqandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Mavloni Hasan Kavkabiy, Boqi jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabiy «Risolai musiqiy» asarini yaratib musiqi nazariyasi faniga katta hissa qo'shgan.

XVI asr oxiri XVII asrda SHayboniylar hukmdorligi davrida Buxoroga turli erlardan san'atkorlarni olib kelib to'plash davom ettiriladi. Ubaydulloxon (o'zi shoir sifatida devon qoldirgan) Hiroti bosib olganda mashhur Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga oldirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi. Darvish Alining shohidlik berishicha Axiy Garaviy maktabida Xo'ja Hamza Toshkandiy, Xo'ja Bobo changiy, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Hofizi Ushshoqiy kabi Movarounnahrning turli joylaridan kelgan hofizlar tarbiyalanganlar.

XVII -asrning yirik sozandasi, musiqi tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali CHangi bo'ldi. U 12 bo'limdan iborat «Risolai musiqiy» asarini yaratdi. Bu asar o'sha davr musiqi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho'pbalari, usullariga va musiqi nazariyasiga keng to'xtaydi. Darvish Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o'sha zamon musiqi asboblari tanbur, chang, nay, qo'shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo'buz, rud, g'ijjak, ishrat, kungura, dutor, setor, surnay, bolobon, nog'ora, karnay, doira kabi sozlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Bu davrda yana noma'lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Prisolai karamiya» kabi musiqi nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.



XVII-asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san'ati yana tushkunlikka tushadi. Movarounnahrning uch xonlik va amirlikka bo'linib ketilishi sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida madaniy-musiqiy hayotda ajralishlar ro'y beradi. SHunga qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo'qon xonligidagi musiqiy san'at muhiti o'z holicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi.

O'tmishda nota yozuvi bo'lmaganligi sababli og'izdan og'izga o'tib kelgan mavjud xalq mumtoz kuy va qo'shiqlari endilikda notaga olingan bo'lib, bu xayrli ishni V.A. Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, I.A.Akbarov, M. YUsupov, akademik YUnus Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz YUnus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdir. Natijada «O'zbek xalq muzikasi», «SHashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Gulyori SHaxnoz» singari ko'p jildli qator musiqiy to'plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma'naviy boyligiga aylandi.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. CHunki bahzi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham ehtirol etish zarur bo'ladi. CHunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi.

Bu borada V.A. Uspenskiy, E.E. Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zurur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, YUnus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Natijada, o‘zbek xalq musiqalari, qo‘shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko‘rdi.

So‘nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko‘rinishlarga to‘la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o‘tgan davrlar mobaynida ilm fan, san‘at, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini ehtirot etish zarur. YAqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, tahlimi singari sohalarni olish mumkin.

SHu o‘tgan davrlarning salbiy oqibatlari sifatida hayotimizning o‘ta siyosiyashtiriluvu, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo‘l qo‘yilishi, xalqchil yo‘nalishlarga bepisandlik munosabatida bo‘lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sunhiy to‘siqlar qo‘yilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darajasi ilgari ayricha holda bo‘lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur an‘analarining o‘lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham xarakterlanadi. SHu boisdan ko‘p ovozlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar ma‘naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi.

Musiqiy madaniyatimizning yangi yo‘nalishi bo‘lgan o‘zbek simfonik musiqasi 70-80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o‘taylik. Bu o‘rinda respublikamizda, qo‘shni va qator xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko‘rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o‘zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziyalar, cholg‘u konsertlar va simfoniyalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-e‘tiborini qayta-qayta o‘ziga jalb qilgan.

Bugungi kunda o‘zbek musiqa san‘ati nafaqat asl an‘naviy ko‘rinishlarida, balki kompozitorlik yo‘nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan

olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'analarga, mumtoz namunalardan xazinasiga ega sermahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashkil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlari hamisha qadrlidir.

Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli «Tanovar» poemasi, «Lola» syuitasi, Reyngolpd Glierning «Farg'ona bayrami» shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutal Burhonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Alisher Navoiyga qasida»si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushelp, Sulaymon YUdakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning «Lirik poema»si, Boris Nadejdinning «Bolalarga» syuitasi, Ikrom Akbarovning «SHoir xotirasiga», «Epik poema»lari, «Samarqand hikoyalari» turkumi, Sayfi Jalilning «Samarqandnoma» simfoniyasi, To'lqin Qurbonovning simfonik kuylari, Mirsodiq Tojievning «SHoir sevgisi» poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Mahmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoev, Rustam Abdullaev, Habibullo Rahimov, Bahrullo Lutfullaev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zaminimizdagi musiqa san'atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O'tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyatimiz juda ko'p marta o'zining uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi va xalqimiz ma'naviy boyligining negizi sifatida ezgulik

va taraqqiyot uchun xizmat qildi. SHuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko‘lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin ma’noda bebaho darajali ulug‘vor musiqiy merosga egamiz.

O‘rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida «O‘n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha etib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari, an’anaviy ijrochilik va surnay yo‘llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san’ati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda.

Milliy cholg‘ularimizning toifalari ko‘pligi, turfa yakka va jo‘rnavoqlik ijro an’analarining o‘ziga xosligi bo‘yicha milliy musiqa san’atimizga dunyo uzra teng keladiganini topish qiyin. SHarq musiqa ilmining asoschisi deb butun jahonda tan olingan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy, buyuk allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaynulobiddin Xusayniy, Kavkabiylar Buxoriy, Darvish Ali CHangiy va boshqalar sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarni ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilgandirlar.

Ana shunday xalqchil va ustozona qatlamlar orqali bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimiz tufayli tarixan juda qisqa muddatlarda O‘zbekistonda yanada yangicha, ko‘p ovozli milliy kompozitorlik ijodiyoti uzil - kesil shakllandi, o‘z qiyofasiga ega bo‘ldi, jadal ravnaq topdi. Bunda xalq musiqamiz, ayniqsa, maqomchilik an’analari faqat hayotbaxshlikni tahminlabgina qolmay, balki mahsuldor zamin bo‘lib xizmat qildi.

## 1.2. Barkamol avlod tarbiyasida musiqaning ahamiyati

Istiqlol yillarida musiqiy madaniyatimizni rivojlantirish sohasida Prezidentimizning qator farmonlari va qarorlari ehlon qilindi. Bular orasida «O‘zbeknavo» gastrolp- konsert birlashmasini tashkil etish to‘g‘risida (1996), «O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘shiqlar bayramini o‘tkazish to‘g‘risida (1996), «Respublikada musiqiy tahlimni, madaniyat va san’at o‘quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida» (1996), «O‘zbekistonda estrada san’atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida» (1998, 2001) singari farmon va qarorlar respublikamizda musiqiy san’atni yanada yuksaltirish borasida qo‘yilgan qadamdir.

Ayniqsa, 1997 yildan buyon har ikki yilda Samarqand shahrida o‘tkazilayotgan «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivali xalqaro maydonda yurtimiz nufuzini yanada oshirib yubordi. Ushbu nufuzli anjumanda dunyoning 40 dan ortiq davlatlari vakillari ishtirok etmoqda. Bu festivalda o‘zbek xonanda va ijrochilarining sovrinli o‘rinlarni egallashi tahsinga sazovor bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Toshkent shahrida 1998 yildan boshlab xalqaro simfonik musiqa festivalining o‘tkazilishi, unda jahonning ko‘zga ko‘ringan dirijyorlari va ijrochilarining qatnashishi, 1995 yildan boshlab «Ilxom - XX» Xalqaro zamonaviy kamer musiqasi festivalining o‘tkazilishi ham musiqiy san’atimiz nufuzini oshirmoqda.

Xalq folklor ijodiyoti, an’anaviy kasbiy musiqa, harbiy vatanparvarlik ruhidagi musiqiy yo‘nalish, har bir viloyatning o‘ziga xos musiqiy qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan ijrolar yuksak professionallik darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, milliy estrada ruhidagi qo‘shiqlar, yangi-yangi estradamiz yulduzlarini kashf etdi. SHuningdek, Buxoro, Xiva, Termiz, Nukus shaharlarining yubiley tantanalariga tayyorlangan konsert dasturlari, «Avesto»ning 2700 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yiligi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Al-Farg‘oniy kabi buyuk ajdodlarimizning qutlug‘ sanalariga bag‘ishlangan konsert dasturlari ham musiqiy ijrochiligimizning yuksalib borayotganligidan dalolat bermoqda. Ushbu barcha katta tadbirlarda yangi musiqiy dasturlar rejissurasi shakllandi.

O'tgan davrlar mobaynida ushbu yo'nalishga bag'ishlangan qator ko'rik tanlovlarning o'tkazilishi fikrimizning dalilidir. Katta ashula ijrochiligi va oilaviy ansambllar (Qo'qon, 1991, SHahrisabz, 1994), "Alla" ijrochilari (Toshkent, 1992, 1994, 1998, 2000; Marg'ilon, 1996), to'y-marosim qo'shiqlari ijrochilari (Toshkent, 1993), folklor-etnografik jamoalari «CHashma» tanlovi (Toshkent, 1994), «Istehdod» nomli yosh xonandalar (Toshkent, 1995), baxshi - shoirlar (Denov, 1991, Narpay, 1993, Toshkent, 1995, 1997, Termiz, 1999), maqom ijrochilari va xalq cholg'ulari ansambllari (SHahrisabz, 1996) «Barhayot siymolar» (Toshkent, 1996, 1997, 1998), oilaviy ansambllari (Jizzax, 1998), folklor-etnografik ansambllari (Toshkent, 1999), M. Uzoqov va J. Sultonov nomidagi yosh xonandalar (Marg'ilon, 1997, 1999, 2001), Hoji Abdulaziz Abdurasulov nomidagi yosh xonandalar (Samarqand, 1997), Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar (Urganch, 2001), YU.Rajabiy nomidagi IV Xalqaro va V Respublika Maqom ijrochilari (Toshkent, 1995, 1999), oilaviy ansambllar (1995) va folklor-etnografik jamoalari (1996) telefestivallari shular jumlasidandir.

Istiqlolning o'tgan davrlari mobaynida xalq musiqa ijodiyoti yo'nalishi yangi bosqichga ko'tarildi. Musiqiy folklori xalqimizning etnik joylanishi sharoitidan, barcha vohalarning urf-odatlarini nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tabiiy ijroviy ko'rinishi, kiyimlari va o'ziga xos musiqa sozlaridagi musiqiy ko'rinishi saqlanib qolmoqda. YAngilik sifatida xalq folklor ijrochiligining milliy estrada yo'nalishiga uyg'unlashgan holda yangi ijroviy namunalari ham namoyon bo'lmoqda. Bu ko'rinishlar xalq musiqiy folklor ijodiyotini yangilanish bosqichiga ko'tarilganidan dalolatdir.

Respublikamizda ushbu janrda ijod qilayotgan «Besh qarsak», «Boysun», «Gulyor», «Omonyor», «Gulchehralar», «Doston», «Besperde», «Orzu», «YOr-yor!», «CHavgi», «Mohi Sitora» singari ko'plab ansambllar o'zlarining yorqin ijodlari bilan namuna bo'lmoqdalar.

YAna bir xalqona musiqiy yo'nalish mumtoz an'anaviy musiqiy ijrochiligi sohasida ham e'tiborli ishlar amalga oshirildi. Asrlar qahridan ajdodlarimizdan

bizga meros bo‘lib kelgan xalq an’anaviy kasbiy musiqamiz yangi-yangi boy an’analarni davom ettirmoqda.

Bu borada Turg‘un Alimatov, Orifxon Hotamov (marhum), Fattohxon Mamadaliev (marhum), G‘ulomjon Hojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, Temur Mahmudov, Mamasiddiq Madaliev singari mashhur bastakorlar, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari yorqin misol bo‘la oladi. Ushbu maqom va an’anaviy yo‘llarni xalqqa etkazishda hofiz va xonandalarning ham xizmatlari beqiyosdir. Hofizlik ijrochiligining yangi-yangi avlodlari etishib chiqmoqda. Musiqiy merosimizning etakchi yo‘nalishlaridan bo‘lmish xalq baxshichilik va dostonchilik san’ati ham jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. «Alpomish» dostonining 1000 yilligini bayram qilinishi bu sohada yangi qo‘yilgan qadam bo‘ldi.

Istiqlol yillarida xalq mumtoz qo‘shiqchiligini, xalq baxshichilik san’atini rivojlantirish borasida talay ishlar qilindi. Bu borada Prezidentimizning farmoni bilan «O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi», «O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvonlarini tahsis etilishi ushbu sohaga bo‘lgan e’tibordan dalolatdir.

Xalq musiqa ijodiyotini ilmiy tahlil qilish, musiqa ilmini amaliyot bilan bog‘lash borasida o‘zbek musiqashunos olimlarining xizmatlari ham beqiyos bo‘lmoqda. Natijada qator o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Ilmiy izlanish natijasida yangi-yangi ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga kelmoqda. Bularning barchasi xalq musiqiy ijodiyotining mumtoz kasbiy musiqasini ilmiy asoslangan yo‘nalishda o‘rganish va ijro etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Istiqlol yillarida musiqiy madaniyatning barcha yo‘nalishlari qatorida zamonaviy kompozitorlik yo‘nalishi ham o‘z so‘zini aytmoqda. Bu sohada konsert - ijrochilik, musiqali teatr hayoti, an’anaviy va akademik ijrochilik, musiqa tahlimi, kompozitorlik ijodiyotining umumiy yuksalishi bilan bog‘liq holda taqqoslash mumkin. Bu davrlarda musiqiy sahnaviy janrlarda ijod etgan kompozitorlarning

ijodlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Mustafo Bafoevning «Buyuk ipak yo'li» teatrlashgan musiqiy asari (rejissyor Baxodir Yo'ldoshev) Parijda YUNESKO qarorgohida, Samarqandda 1 xalqaro «SHarq Taronalari» festivalininshg ochilishida qo'yilib, zo'r muvaffaqiyatga erishildi. YAna shu kompozitorning «Zardushtiyar marosimi» balet oratoriyasi, «Buxoroi SHarif» opera dostoni, I. Akbarovning «Ibtido xatosi» opera-oratoriyasi diqqatga sazovordir. Musiqiy sahnaviy janrlarda ijod etgan kompozitorlar orasida Farhod Olimov, Habibullo Rahimov, Avaz Mansurov, Nurilla Zokirov, Anvar Ergashev, Baxrilla Lutfullaev, F. YAnov-YAnovskiy, Mirxalil Mahmudov, To'lqin Qurbonov, Alisher Rasulov ijodlarini alohida ko'rsatish mumkin. Bu borada istehdodli kompozitor F. Alimov o'ndan ortiq asar yaratdi. «Nodirabegim», «Fotima va Zuhra», «Soyibxo'ja operatsiyasi» asarlari muvaffaqiyatli sahnalashtirildi.

SHuningdek, «Taqdir» (B. Lutfullaev), «Ibrohim Alayhisallom» (T. Qurbonov), «Bir soatlik halifa» (A. Mansurov), «Har kimki vafo qilsa» (A. Ikromov), «To'ylar muborak» (M. Mahmudov), «Bir kam dunyo» (A. Rasulov), «Tilla tuxum» (A. Ikromov) singari musiqali spektakllar teatrlarimiz repertuarlaridan mustahkam o'rin egalladilar.

Dramatik spektakllar va kinofilmlarga musiqa yaratish borasida ham ijodiy yutuqlarga erishildi. «Mehrobdan chayon» videofilmi (F. Alimov musiqasi, 1998), «O'tgan kunlar» kinofilmi (M. Mahmudov musiqasi, 1998), «Amir Temur» kinofilmi (F. YAnov-YAnovskiy musiqasi, 1996), «Quyoshi botmaydigan yurt» ko'p seriyali telefilm (A. Ergashev musiqasi, 1999) va boshqa qator asarlarni ko'rsatish mumkin.

90-yillarda o'zbek xalqining mumtoz operalari bo'lmish (T. Sodiqov va R. Glierning «Layli va Majnun» 1995, M. Ashrafiyning «Dilorom», 2001) qayta ishlanib, yangicha talqinda namoyish etildi. A. Ikromovning «Buyuk Temur», M. Bafoevning «Al - Farg'oniy» operalari A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida o'z aksini topdi.



H. Rahimovning «Ona qalbi» kamer operasi, N. Muhammedinovning «Qirq qiz» qorqalpoq operasi va «Ayjamal» baleti ham muvaffaqiyat bilan namoyish etildi. Opera qoʻshiqchiligida Oʻzbekiston xalq artisti Muyassar Razzoqova va qator yoshlarning ijrolari tahsinga sazovordir.

Simfonik musiqa janrida ham kompozitorlarimiz ijodi barakali boʻldi. Ushbu janrda I. Akbarov, M. Tojiev, M. Bafoev, R. Abdullaev, X. Rahimov, A. Latifzoda, F. Yanov-Yanovskiy kabi kompozitorlarimiz simfonik asarlari xorijiy davlatlarda oʻtkazilgan festivallarda ham munosib baholandi. Ayniqsa, 1998 yildan buyon Toshkentda oʻtkazilayotgan Xalqaro simfonik musiqa festivalida respublikamizni hamdoʻstlik mamlakatlari orasida yirik simfonik musiqa markazi darajasiga koʻtardi. Mustaqillik yillarida yaratilgan qator simfonik asarlarida gʻoyaviy-mazmun chuqurlashdi, shakl va uslub mukammallashdi, milliy anʼanalar mushtarakligida zamonaviy simfonik tafakkur va uslublar yuzaga keldi.

SHu asnoda vokal-simfonik va xor musiqasi rivojini ham aytib oʻtish lozim. Oʻzbekiston kompozitorlari yurtimizda kechayotgan oʻzgarishlar, siyosiy jarayonlar aks etgan mavzularga bagʻishlangan syuita, poema, kantata va oratoriya, xor asarlari yaratmoqdalar va jumladan, cholgʻu musiqasiga ham eʼtiborni qaratmoqdalar.

Bu borada 1992 yili «Soʻgʻdiyona» oʻzbek xalq cholgʻulari kamer orkestrining tashkil etilishi (badiiy rahbar va bosh dirijyor F. Abdurahimova) jahonning qator davlatlari sahnalaridagi muvaffaqiyatli chiqishlari ahamiyatga molik voqeadir. Oʻzbekistonda istiqlol yillaridagi kompozitorlik ijodiyotining rivoji va yuksalishi kompozitorlar va bastakorlar uyushmasining ijodiy faoliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Uyushma respublikamizda turli tanlovlar va festivallar oʻtkazilishiga bosh-qosh boʻlmoqda.

1996 yildan boshlab respublikamizda «Oʻzbekiston - Vatanim manim» qoʻshiq tanlovi va 1997 yildan boshlab qoʻshiq bayramlarining oʻtkazilishi natijasida yangi-yangi qoʻshiqlar va ularning ijrochilari kashf etilmoqda. Bu borada R. Abdullaev, A. Mansurov, X. Rahimov, A. Nazarov, A. Ikromov, A.

Rasulov, D.Omonullaeva, M.Bafoev, F.Alimov, N.Norxo'jaev singari kompozitorlar barakali ijod qildilar. Ayniqsa, estrada qo'shiqchilik san'ati keng ko'lamda rivoj topa boshladi.

Mustaqillik yillarining o'tgan davrlarida o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismiga aylanib qolgan qardosh qoraqalpoq xalqining san'ati sohasida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Qoraqalpoq musiqasi azaldan o'z milliy qadriyatlarini, urf odatlarini, ma'naviy merosini o'zida aks ettirganligi bilan diqqatga sazovordir.

Mustaqillik yillarida alohida ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan milliy estrada musiqasi va qo'shiqchiligiga to'xtalib o'tish joizdir.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib qo'shiqchiligimizning va musiqa madaniyatimizning yangi yo'nalishi, yahni estrada janri tarkib topdi. Bu esa san'atimizda yangilik deb qabul qilindi. Taniqli kompozitorlar M. Burhonov, I. Akbarov, M. Leviev, A. Berlin, X. Izomov, E. Solihov, G'. Qodirov, A. Muhamedovlar ommaviy estrada yo'nalishida ham muvaffaqiyatli ijod qildilar.

O'zbek estradasining dastlabki qaldirg'ochlari etishib chiqdi. B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, B.Mavlonov, N.Zokirov, R.SHaripova, YU.To'raev, S.Rahimov, A.Ioshpe singari estrada xonandalari shular jumlasidandir.

YUqorida tilga olingan kompozitor va xonandalar o'zbek estradasining maktabini yaratdilar. Estrada qo'shiqlari teleradio dasturlari, kino va sahnaviy asarlar, konsertlar orqali ommalashdi va o'zining muxlislariga ega bo'ldi. Hatto xalqaro sahnalarda ham o'rnini topib oldi. Mashhur estrada qo'shiqchisi, o'zbek estradasining so'nmas yulduzi Botir Zokirovning jahon sahnalaridagi muvaffaqiyati o'zbek estrada san'atini jahonga tanitdi. Uning o'z ona tili bilan bir qatorda turli tillarda aytgan qo'shiqlari estradamiz jahon sahnasiga chiqib olishida ko'pri bo'lib xizmat qildi.

Istiqlol yillarida estrada ijrochilik san'atimiz yangi bosqichga ko'tarildi. SHu yillarda «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasining tashkil etilishi,

«O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘shiqlar bayramining o‘tkazilishi, «O‘zbekistonda estrada san’atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi Prezident farmonlari bu borada yuksalish yo‘lini belgilab berdi.

«Ofarin», «Ona zamin yulduzlari», «Nihol» sovrinlari tahsis etildi. Yangi- yangi ijrochilar kashf etildi. Estrada kollektivlari, guruhlari, alohida ijrochi yoshlar xalqaro festivallarda, tanlov va konsertlarda muvaffaqiyatga erisha boshladilar. O‘zbek estradasining Farruh Zokirov va «YAlla» vokal - cholg‘u ansambli, Mansur Toshmatov, G‘ulomjon YOqubov, Nasiba Abdullaeva singari ustoz ijrochilari ketidan yangi avlod estrada vakillari barakali ijod qilmoqdalar. YUlduz Usmonova, Kozim Qayumov, Kumush Razzoqova, Nuriddin Haydarov, Ravshan Nomozov, Azim Mullaxonov, G‘iyos Boytoev, Mavluda Asalxo‘jaeva, YUlduz Abdullaeva, Mardon Mavlonov, Sofiya Saftarova, Salohiddin Azizboev, Mohira Asadova, Ozoda Nursaidova Gulbahor Sulaymonova singari xonandalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida bolalar musiqiy estrada janri ham yangicha ko‘zgu bilan namoyon bo‘ldi. Bu sohada Nadim Norxo‘jaev, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullaeva, Alisher Rasulov singari kompozitorlar faol ijodiy mehnat qilmoqdalar.«Turkiston farzandimiz», «Sog‘lom avlod», «Humo qushim», «Ramazon», «Oq terakmi, ko‘k terak», «Istiqlolim», «O‘zim aylanay» singari qo‘shiqlar misol bo‘la oladi.

Umuman olganda, milliy istiqlol tufayli musiqa madaniyatimizning barcha jabhalari shahdam qadamlar bilan yuksalish sari intilmoqda. Oliy va o‘rta maxsus tahlim muassasalarida milliy madaniyatimizning ulkan xazinasini bo‘lgan musiqiy va qo‘shiqchilik san’atining boy tarixini o‘rganish va targ‘ib etish muhim ahamiyatga egadir.

Ulug‘ ajdodlarimiz musiqa va qo‘shiqchiik san’atining inson shaxsini kamol toptirish, olijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baxo berganlar. Musiqiy madaniyatning barcha turlari kishilarga badiiy-estetik zavq

beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar beradi, hayot haqiqatini badiiy-estetik vositalar orqali idrok etishga yaqindan yordam beradi.

Inson borlig'ini, ma'naviy taraqqiyotini musiqiy madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik san'atining boy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar. Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobiyning «Katta musiqiy kitob»i, Abu Hamid G'azzoliyning «Diniy bilimlarning tirilishi» asarlarida, Hazrat Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning qator asarlarida ilgari surilgan inson kamoloti to'g'risidagi ilg'or g'oyalari bugungi kunda g'oyat qimmatli va ibratlidir.

Komillar, ulug' allomalar nazarida so'z ilohiy va muqaddasdir. Qo'shiqchilik san'ati mo'ljizaviy va sehrli kuchga ega bo'lgan so'zga ohang vositasida jozibadorlik bag'ishlaydi, uning ta'sir kuchini yanada oshiradi, so'zga yangi hayot beradi. Musiqaning hamohangligi tufayli so'z inson qalbi va shuurini larzaga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi kuchga aylanadi.

Xalq milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atida xalqimizning uzoq tarixi, orzu-armonlari, hayot haqidagi bilim va tasavvurlari mujassamlashgandir. Har bir xalqning ma'naviy salohiyati, jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi uning musiqiy madaniyati bilan belgilanadi.

Vatan tarixi voqea va hodisalar tarixidan iborat emas, balki ma'naviy yuksalish tarixidir. Hozirgi xalqimiz tomonidan asrab avaylab kelinayotgan va abadiylikka daxldor maqom musiqalari, xalq an'anaviy qo'shiqlari donishmand va ijodkor ajdodlarimizning buyuk kashfiyoti, ma'naviy kamoloti sari tashlangan salmoqli qadamidir.

Pedagogikada rivojlanish va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi muhim muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. SHaxsning rivojlanishi qiyin, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fanlari rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishning qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyatning ta'siri, ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog'liqdir. SHaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. SHu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning ma'suli deb tushunishimiz lozim.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muammolariga to'g'ri yondoshish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir etadigan sabab va vositalarni bilish zarur.

SHaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim va tarbiya, shaxs faoliyati (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi. SHaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharafli hamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimining isloh qilinishi, ya’ni ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda.

Musiqqa ta’limining ham bola shaxsini shakllantirishdagi o‘rni beqiyos. Shunday ekan, ushbu fan o‘qitilishida samaradorlikni oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishiga e’tibor qaratish musiqqa madaniyati fani o‘qituvchilariga alohida mas’uliyat yuklaydi. Prezidentimizning “Musiqqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash to‘g‘risida”gi 910-sonli qarori doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zahirida o‘quvchilarimizni barkamol qilib tarbiyalash, ma’naviyatli yoshlar orqali yurtimiz taraqqiyotining poydevorini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi.

2012-2013-o‘quv yili uchun takomillashtirilgan o‘quv dasturi bola ruhiyati va ma’naviy ola-mini go‘zallashtiruvchi, Vatan tuyg‘usini kuchaytiruvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarannumi aks etgan kuy-qo‘shiqlar bilan boyitildi. Optimallashtirilib, qayta ishlangan o‘quv dasturi asosida tuzilgan taqvim-mavzuli reja asosida 2—7-sinflarga jamoa bo‘lib kuylash uchun quyidagi qo‘shiqlar kiritildi: 2-sinfda “Bolalar qo‘shig‘i”, Mirshakar she’ri, X.Hasanova musiqasi, “Sho‘x bolajonlar”, I.Jiyanov she’ri, X. Hasanova musiqasi “Quyosh”, I.Jiyanov she’ri, G.Qo‘chqorova musiqasi; 3-sinfda “Maktabim”, A. To‘xtayev she’ri, X. Inag‘omov musiqasi, “Bolalik”, Dilnur she’ri, X.Hasanova musiqasi; 4-sinfda “Vatan”, X.Raxmat she’ri, X.Hasanova musiqasi, “Mehrli kunlar”, N.Isroilov she’ri, X.Hasanova musiqasi, “Navbahor”, N.Narzullayev she’ri, G.Qo‘chqorova musiqasi, “Maktab”, K.Turdiyeva she’ri, J.Abdurahmonov musiqasi; 5-sinfda “Mening diyorum”, I. Jiyanov she’ri, X. Hasanova musiqasi, “Navro‘z”, K.Turdiyeva she’ri, N.Qurbonova musiqasi, “Sumalak”, A.Obidjon she’ri, X.Hasanova musiqasi, “Barkamol avlod”, I. Mirzo she’ri, I.Yo‘ldosheva musiqasi, “Gullar”, Fotima va Zuhra Ziyomuxamedova she’ri va musiqasi; 6-sinfda “Ustozlar”, G.Qo‘chqorova she’ri va musiqasi, “Sport”, K.Turdiyeva she’ri X. Hasanova musiqasi; 7-sinfda “Tinchlik bo‘lsin”,X.Axmedova she’ri,

X. Hasanova musiqasi, “Shodiyona”, R.Isroilova she’ri, X.Hasanova musiqasi, “O‘zbekiston”, M.Omon she’ri, D.Omonullayeva musiqasi kabilar shular jumlasidan.

Boshlang‘ich sinflarda bolaning tez toliqishini inobatga olgan holda amaliy mashg‘ulotlardan so‘ng musiqa tinglash, musiqa ijodkorligi hamda bolalarning musiqa asboblariга jo‘r bo‘lib kuylashi kabi faoliyat turlarini amalga oshirish mumkin.

4-6-sinflarda ham ovoz sozlash va qo‘shiq o‘rganish jarayonlari quyi sinflarniki kabi bo‘lib, ovoz diapazonini sekunda va tersiya intervaligacha ko‘tarish mumkin. Bu yoshdagi o‘quvchilarning musiqiy tarbiyasida jamoa bo‘lib kuylash va tinglash bilan birga, musiqaga mos raqs elementlarini bajarish boladagi jismoniy sezgirlikni, musiqiy xarakterni to‘g‘ri anglash va unga munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

7-sinf o‘quvchilarining musiqiy va estetik didi bir muncha shakllangan bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshdagi o‘quvchilarga zamonaviy musiqa va jahon musiqa madaniyatining ko‘zga ko‘ringan sozanda va xonandalarining ijrosini eshittirish lozim. O‘smir yoshga mo‘ljallangan barcha turdagi ovoz sozlash mashqlari ham shunga xos tanlanadi. Ushbu ovoz sozlash mashqlari qo‘shiqlardan olingan lavhalar ko‘rinishida bo‘lishi hamda notalarning nomlari bilan berilishi mumkin. Bunda mashqlar quyi sinflarga qaraganda ritmik va ohang jihatdan murakkabroq bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi o‘quvchilarning ijro repertuariga alohida e‘tibor berish talab etiladi. Chunki ularning ijro mahorati darajasi ancha o‘sgan, ko‘nikma va malakalari shakllangan bo‘ladi.

7-sinf o‘quvchilari bilan tinglash faoliyatini amalga oshirish jarayonida musiqani anglashga, uni idrok etishga, cholg‘ularni bir-biridan farqlashga, musiqiy janrlarni ajratish hamda diqqatni jamlashga o‘rgatish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni, «Kadrlarlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta’lim tizimida ro‘y berayotgan

o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa predmetining o'qitilishini tubdan yangilashni talab etmoqda.

Musiqa o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, firk doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'anitining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib etishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

#### 1-bob yuzasida xulosa o'rnida

Hozirgi zamon o'zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko'lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida g'aydalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an'analarga ega bo'lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo'nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha etib kelgan ardoqli navobaxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko'rkam musiqiy an'analari madaniy-ma'naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan e'tiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi.

Tabiiyki, tez orada o'zbek xalq ijodiyoti, an'anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o'zaro chambarchas bog'liq qatlamlar bilan uzviy bog'liq



ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noan'anaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo'shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o'lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida ehtirol etish lozim.

G'arbiy va SHarqiy Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o'zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o'zlashtirish, uni o'zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg'or kompozitorlarimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki SHarq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

YAngicha musiqiy uslubda noyob zamonaviy asar yaratish, jahon xalqlari musiqasi rivojlanishini hisobga olib, tobora yangidan - yangi ijodiy ufqlarni ochib berish bilan tavsiflanuvchi baynalminal jarayonga O'zbekiston o'z munosib ulushi bilan dadil kira oldi. Kasbiy ulg'ayish bosqichlarini tezkorlik bilan o'tab, har tomonlama etuklik pallasiga ko'tarilishi bilan «O'zbek kompozitorlik maktabi» dunyo musiqqa madaniyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga intildi.

Mutaxassis-o'qituvchilarning o'quvchilarni musiqiy-badiiy didini shakllantirish borasidagi asosiy vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1.O'quvchilarning tinglanayotgan yoki kuylash uchun tavsiya etilgan musiqqa asariga munosabatini kuzatib, o'rganib borish, ularni musiqiy asarlarni qaysi turuga (janr) va qanday asarlarni (xalq musiqasi, zamonaviy Estrada, mumtoz va hokazo) o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish;

2.O'quvchilarning yosh xususiyatlari individual imkoniyatlari va alohida iqtidorlari to'g'risida aniq ma'lumotlar zahirasiga ega bo'lish;

3.O'quvchilarning alohida cholg'u asboblarida chalish, raqsga tushish va sahnaviy ko'rinishlarda chiqish kabilarga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishlari, iqtidarlari, ko'nikma va malakalariga muvofiq tarzda repertuar tanlash;

4.Mashg'ulatlarda musiqiy faoliyat imkoniyatlaridan o'rinli samarali foydalanish va darsni pedagogik-psixologik hamda metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish;

5.Mashg'ulotlar jarayonida musiqiy yozuv(zapis)lar, video tasvirlar, ko'rgazmali metodik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish;

6.Dars jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, ularda shakllangan badiiy did darajasini obyektiv baholash.

O'quvchilar musiqa asarlarini tinglash va kuylash jarayonida asar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni bilishga qiziqadilar. Bumday qiziqishlarning o'zi ta'limil ishlarni muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Repertuarni xilma-xilligi faqat ta'limiy jihatdan emas, balki badiiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lishi musiqiy estetik tarbiya masalalarini ijobiy hal qilishda, ularni qiziqishlari va estetik didini o'stirishda katta yordam beradi.

## II-BOB: MUSIQA TA'LIMI TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

### 2.1. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini fivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish vat tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

**Pedagogika** “paydogogos-grekcha” “bola” va “etaklash” ma'nosini bildiradi. Insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va usullari haqidagi fan. U yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida bahs qiladi. U ta'lim-tarbiyaning umumiy qonunlarini ishlab chiqib, hayotga tadbiiq qilish masalasini o'rganadigan fan deb ta'riflash mumkin. Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan odamlarda mehnat qurollarini ishlata bilish qobiliyati, mehnat malakalari, nutq va tafakkur o'sib, kamol topib boradi.

«**Pedagogik texnologiya** – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir.»

“**Texnologiya**” yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib “*techne*” - mahorat, san'at, malaka va “*logos*” - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

**Konsepsiya** – umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Xalq ta'limi muassasalarida berilayotgan ta'lim va tarbiya uzluksiz (ya'ni bir-birini to'ldiradi) o'zaro bog'liq. Har bir ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlari asosida keyingi ta'lim turlariga moslangan va davomiyligini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida bir maktabdan ikkinchisiga, bir oliy o'quv yurtidan ikkinchi oliy o'quv

yurtiga ko‘chib o‘tish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim o‘quv rejasi va dasturi, Davlat ta’lim standartlari asosida tizimli, izchil tashkil etiladi.

**Umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi** Mustaqillik sharofati bilan mazkur masalada ham o‘zgarish sodir bo‘ldi. Yangi qonun umumiy o‘rta ta’lim, ya’ni IX- sinf va keyingi uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar (litsey yoki kollej) ta’limini majburiy deb tasdiqladi.

Yosh avlodni qiziqishlari, iste’dodi, imkoniyatlarni hisobga olgan holda hayotda o‘z yo‘lini tanlashiga keng imkoniyat yaratdi. Oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etiladigan, akademik litseyda o‘qish yoki kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantiradigan, tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonni beradigan kasb-hunar kollejlarda o‘qishni tanlash ixtiyoriydir.

Respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. U ilmiy asoslarga ega bo‘lib, fan, texnika, madaniyat va ma’rifatning eng yangi muvaffaqiyatlari va inson aql-zakovati haqida ilmiy bilimlar beriladi. Ular o‘quvchilarni ob’ektiv dunyoni bevosita bilish, ular haqida xaqqoniy fikrlash, tegishli xulosalar chiqarish, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalarini aniqlab olishga, biron bir kasbni ongli egallashlariga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida shunday deyilgan: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir». 42-moddada: «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g’amxo‘rlik qiladi» deyilgan.

Bu printsip o‘quvchilarning iste’dodi, qobiliyatini hisobga olgan holda tabaqalashtiradi (biror bir fanga chuqurlashtirilgan yoki ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan dastur). Olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma’naviy boy, ruxan tetik, jismonan baquvvat, axloqan pok, tafakkuri keng va

mehnatsevar bo'lib voyaga etishi uchun barcha moddiy va ma'naviy sharoit hozirlaydi.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan bilimdon va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Respublikamiz tajribasida bilimdon, iste'dodli o'quvchilar uchun stipendiya, turli ko'rinishdagi maqto'v yorliqlari, moddiy yordam shakllari tashkil etilgan. O'quvchilar turli tanlov, konkurs'larga qatnashadilar va bilimlarini namoyish qiladilar. G'oliblar taqdirlanadi va xatto oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirish, biror kasb bo'yicha guvo'xnomalarga ega bo'lish huquqlariga egadirlar.

Ta'lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs bo'lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Ta'lim muassasasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab, yuridik shaxs huquqini qo'lga kiritadi.

Ta'lim muassasalariga muayyan maqom (gimnaziya, litsey, kollej, oliy o'quv yurti, akademiya va shu kabilar) berilishi, ta'limni boshqarishga tegishli idoralar tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalari o'zaro bitim tuzishga, o'quv tarbiya komplekslari va o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishga xaq'idirlar. Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarning vazifalari, huquqlari va majburiyatlari nizomlarda belgilanadi.

### **Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim-tarbiya muassasalariga tavsif**

O'zbekiston Respublikasida ta'limning yagona tizimi (11-18 modda) amal qilib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim;
2. Umumiy o'rta ta'lim;
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
4. Oliy ta'lim;
5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

7. Maktabdan tashqari ta'lim;

8. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish;

Ta'lim tizimida o'quv rejalari va dasturlari, ta'lim bosqichlari va shakllarining izchilligi, ta'limning standartlariga mos kelishi ta'minlanadi.

### **Maktabgacha ta'lim**

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bundan ko'zlangan maqsad, bolaning bilimga qiziqishini ta'minlashdan, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdan, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishni o'stirishdan, salomatligini mustaxkamlashdan iboratdir.

### **Umumiy o'rta ta'lim**

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (V-IX sinflar);

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, o'quvchilar tanlovi bo'yicha kurslar joriy etilishi va fanlar chuqur o'rgatilishi mumkin. Bunday kurslarning dasturlari umumta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

## **O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi**

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olish maqsadida har kim umumiy o‘rta ta’lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qitishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallagan kasb-hunar bo‘yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, ma’horat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv yurtidir.

## **Oliy ta’lim**

Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli mutaxassilar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalari universitetlar, akademiyalarda) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha puxta bilim beradigan, o‘qish muddati kamida to‘rt yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni shartnoma asosida olishga xaqlidir.

## **Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim**

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga qaratilgandir. Ta’limning bu turi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

### **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

### **Maktabdan tashqari ta’lim**

Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarida maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, san’at maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va boshqalar kiradi. Turli xildagi maktabdan tashqari muassasalar faoliyatiga davlat tomonidan ko‘mak beriladi va nazorat qilinadi.

### **Oilada mustaqil ta’lim olish**

Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ravishda ta’lim olishga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo‘sinda yordam ko‘rsatiladi.



O'quvchilarning bilim va iste'dodlarini vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalab voyaga etkazish maqsadida chet tillarni amalda o'rganish borasida sharoitlar yaratildi, chet tillarni chuqur o'rgatadigan maktab, litsey va gimnaziyalar ochildi. Vatan tarixini chuqur biladigan, jaxon madaniyati tarixidan xabardor o'quvchilarni tarbiyalab voyaga etkazish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo'yicha maktab rejalariga yangi fanlar kiritildi va xokazo.

Ta'lim tizimida barcha pedagoglarni davlat talablari darajasida o'qitishni, majburiy hisoblangan fanlarning reja va o'quv dasturlari asosida olib borishlari, tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish, vijdon erkinligi, axborot erkinligini, o'z qarash va e'tiqodlarini erkin ifoda etishlariga sharoit yaratib berish mas'uliyati yuklatildi.

Ta'lim oluvchilarga davlat standartlariga, yosh va individual xususiyatiga, iste'dod va qiziqishlariga muvofiq ta'lim berish tavsiya etildi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash kiritildi.

O'qituvchi-tarbiyachilarni, ularning sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilish, malaka oshirish, qayta tayyorlashdan o'tish, ta'lim shakli, metodi va vositalarini tanlashda tashabbus ko'rsatish, pedagogik mehnatda tanilgan o'qituchi-tarbiyachilarni davlatimiz orden va medallari bilan mukofotlash, ularni qishloq, sha'har, tuman, viloyat va Respublika oliy organlariga saylash umumxalq vazifasi deb topildi.

SHu bilan birga ularning axloq-odob qoidalariga rioya qilishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini xurmatlashlarini, ma'naviy, tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xurmat, atrof muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruxida tarbiyalash mas'uliyati yuklatilgan va xokazo.

Xalq ta'limi tizimini isloh qilish, kadr tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgartirishlarni kiritish maqsadida 1997 yil 29 avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Qonunda islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilab qo'yilgan. Birinchi bosqich-o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi.

Ikkinchi bosqich - 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich - 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z omillari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, asosiy yo'nalishlari va tamoyillariga ega.

Malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi» .

30-yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. SHuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Evropa hamda AQSHda ta'lim tizimini islox qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shar-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta tashlandi. Mazkur g'oya 30 yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" (ta'lim texnikasi)

tushunchasini olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika (si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jixozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya boholanadi.

20 asrning 50 yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya etirof etiladi, asosiy etibor o‘quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarni imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularni axborot sihimini kengaytirish, axborotlarni uzatish hizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayoni “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jixatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

60 yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining moxiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rina boshlandi. Dasturiy ta’lim o‘quvchilarga muayyan bilimlarni aloxida qism xolida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berishni nazarda tutadi. Ta’lim jarayonining yaxlit, maqbul dasturiga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSHda faoliyat yurita boshlagan “dasturiy ta’lim va o‘rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va boxolashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muxitining aniq tavsifini qamrab oladi. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasining shakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig‘ida kechdi. Qator mamlakatlarda ta’lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etishga alohida etibor qaratiladi. Ta’lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzuldi, maxsusv jurnallar nashr etildi

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi. 60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQSHda «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology), 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» (Technology and programmed Learning). Yaponiyada esa 1965 yildan «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xudi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National Council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab «Pedagogik texnologiya jurnali» (Journal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQSHning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus «Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya»si (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan «Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar» (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. YAqinda Umumiyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mashhur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferensiyalar tasdiqlaydi. SHunday xalqaro

konferensiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o‘tkazilib kelinadi va anjuman materiallari «Pedagogik texnologiya jihatlari» (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

SHu kabi ma’lumotlarni keltirishni g‘arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq 1 – chizma bunga ehtiyoj qoldirmaydi. YUqoridagilarning o‘ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo‘nalish sifatida shakllanganligini ta’kidlab turibdi. Taxlillarning ko‘rsatishicha, bu davrda PT ikki yo‘nalishda muhokama qilinadi va rivojlantiriladi: birinchisi – o‘quv jarayoniga texnik vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lsa (shu jumladan dasturli ta’limning texnik vositalari), ikkinchisi – o‘qitish texnologiyasi masalalarini, ya’ni o‘quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta’lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo‘lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

## **2.2. Innovatsion-pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish**

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o‘sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq shuningdek, kichik mutaxassisning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo‘yuvchi bozor iqtisodiyotiga o‘tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh kichik mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirish jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortidan ergashtira olish uchun bugungi o‘qituvchiga qanday tartibda yordam berish mumkin?

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimni yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1761-son qarori qabul qilindiki, unda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari pedagog kadrlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashlari uchun tegishli sharoitlar yaratish, ularda interfaol ta'lim uslublarini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarini ommalashtirishni ta'minlash maqsadida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassaslari pedagog kadrlari uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" mavzusida 2012 yil oktyabr-dekabr va 2013 yil iyul-avgust oyilaridan seminar-treninglar tashkil etildi.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta'lim mazmunini belgilashga, ta'lim olishga yordam beradi.

Pedagogika fani nuqtai nazaridan qaralganda esa «ta'lim» o'qituvchi va o'quvchi ta'sirining majmui bo'lib, uning natijasida o'quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruxiyatini rivojlantirish ma'nosini bildiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlari ta'lim turlari uchun tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari (yoki davlat talablari) va fanlar bo'yicha uzviy bog'langan o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Bunda muayyan fanning o'quv adabiyotlari mazkur ta'lim turida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan bog'liqligini va boshqa ta'lim turlarida ushbu fanning o'quv dasturlaridagi uzviylikni ta'minlash lozim. O'quv adabiyotlari belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o'tkaziladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo'lgan umumta'lim fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlanadi.

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha

ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi.

**Innovatsiya** (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin **innovatsiya** deganda *muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.*

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

*1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.*

*2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.*

*3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.*

*4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.*

*5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.*

**Birinchi shaklga** yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

**Ikkinchi shaklga** yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

---

**Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta‘sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.**

---

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub’ektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi.

R.N.YUsufbekova **pedagogik yangilikka** o‘qitish va tarbiya berishda avval ma’lum bo‘lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni sifatida qaraydi.

---

**Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.**

---

**Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining** mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

- *madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;*
- *shaxsiy faoliyat jihatidan (ta’limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;*
- *ko‘p sub’ektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;*
- *individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari) yondashuv.*

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini- o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi.* Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri **talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.**

Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.



---

**Tayanch yo‘nalishlar - ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o‘zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o‘tish.**

---

**O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.**

---

YUksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- *iste’dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste’dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o‘quv yurti;*
- *o‘z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;*
- *o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;*
- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*

Ijodiy individualizmni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- *ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;*
- *pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;*

- *samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;*

- *shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;*

SHu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

**Kreativlik** termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*
- *fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;*
- *o'ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

**Innovatsionlik** pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. **Innovatsionlik** ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida

o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini tug‘dirishdir*.

**Muloqotning yangi vaziyati** - bu o‘qituvchining o‘z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o‘ziga bo‘lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O‘qituvchi o‘z nuqtai nazarlariga o‘ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o‘zgarib boradi, hissiy tuyg‘ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o‘qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi*.

---

**O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirishga,**

**uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir.**

---

**O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi** innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me‘yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;*
- *o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.*

Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

- *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;*

- *ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;*

- *pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

**YAngilik** pedagogik yangilik me'yorlari sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

**Maqbullik me'yorlari** o'qituvchi va talabning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

**Natijalilik** o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

**Pedagogik yangilik** o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi..

---

**O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.**

---

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

- *shaxsning ijodiy-motivatsion yoʻnalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; oʻz kamolotiga intilish va boshqalar;*

- *kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi boʻlish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, oʻzicha mushohada yuritish, refleksiya;*

- *kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va oʻzaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;*

- *oʻqituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surʼati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatʼiyatlik, oʻziga ishonch; masʼuliyatlilik, halollik, haqiqatgoʻylik, oʻzini tuta bilish va boshqalar.*

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari oʻqituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi meʼyorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- *innovatsion faoliyatga boʻlgan zaruriyatni anglash;*
- *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;*
- *shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;*
- *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*
- *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka taʼsiri;*
- *kasbiy refleksiya boʻlgan qobiliyat.*

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, oʻqituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri-oʻqituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- *yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;*
- *yangicha harakat qila olishga o'rgatish.*

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

### 2.3. II-bob yuzasidan xulosa

Bugun malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi»

Musiqqa ta'limining ham bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni beqiyos. Shunday ekan, ushbu fan o'qitilishida samaradorlikni oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishiga e'tibor qaratish musiqqa madaniyati fani o'qituvchilariga alohida mas'uliyat yuklaydi. Prezidentimizning "Musiqqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash to'g'risida"gi 910-sonli qarori doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zahirida o'quvchilarimizni barkamol qilib tarbiyalash,

ma'naviyatli yoshlar orqali yurtimiz taraqqiyotining poydevorini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlaridashaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. CHunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega,favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etuvchimalakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy extiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqazo etmoqda.

SHu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedogogika fanining vazifalari doirasi kegayib bormoqda. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiyhayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jijatdan umumlashtirish, hulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedogogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etigan hizmat qiladi.

### **III-BOB: MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA PEDAGOGIK MAHORATNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI SHAKLI VA USLUBLARI**

#### **3.1.O‘zbekistonda zamonaviy musiqa pedagogikasi**

Istiqlol sharofati bilan o‘tgan davrlar mobaynida musiqiy san’atimiz yangi bosqichlarga ko‘tarildi. Jahon musiqiy madaniyati bilan hamkorlik rishtalari yangidan bog‘landi. O‘zbek xalqining boy musiqa merosini, sharq musiqa madaniyati bilan mushtarakligini nazarda tutgan muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning «SHarq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o‘rni buyuk. Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda»<sup>1</sup> degan so‘zlari buning yorqin dalilidir.

XX asarning 1970–yillarda O‘zbekiston maktablarida musiqiy talimning quyidagi tizimi joriy etilgan edi. Unda dasturlar darslarining alohida, ammo bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq turlari ishlab chiqilgan:

- mavzuga kirish darsi;
- mavzuni chuqurlashtirish darsi;
- mavzuni o‘zlashtirish darsi;
- yakuniy dars–konsert.

Musiqa ta’lim tizimining tahlillari va o‘zidagi ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa darslarining yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Zamonamiz taqazosi bilan musiqa darslari yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun ularda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yaxshi natija bermoqda. Darslar qiziqarliroq, jo‘shqin, ko‘tarinki ruhda o‘tishi uchun biz quyidagi dars turlarini taklif etamiz:

Konsert darslar, viktorina darslar, intervyu darslar, konkurs darslar, yo‘naltiruvchi darslar (illyustrativ material yordamida), «stol atrofida» darslari,

---

<sup>1</sup> И.А. Каримов. Асарлар. 6- жилд, 322- бет.



o‘z-o‘zini anglash darslari, himoya darslari, rasmlar galereya darslari, quvnoqlar va zukkolar darsi, bahs-munozara darslari va hokazolar. Bu darslarning har biri o‘z tuzilishi, vazifasi va metodik asosiga egadir.

Boshlang‘ich sinflarda darslarni o‘yin tarzida olib borilsa, o‘quvchilarning faolligi oshib boradi va ular berilgan vazifalarni nisbatan oson bajaradilar. Masalan, musiqiy cholg‘ular mavzusini o‘tganda, o‘quvchilarga turli xildagi musiqa cholg‘ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O‘qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg‘uda ijro etilgan musiqani qo‘yadi. O‘quvchilar musiqiy asar qanday cholg‘uda ijro etilganligini qo‘llaridagi kartochkalar orqali qo‘rsatadilar. Eng faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadilar va rag‘batlantiriladilar. Masalan, viktorina–dars, konsert–darslari o‘quvchilarning bilimlariga asoslangan holda o‘tiladi. Dars–sayohat video tasma yordamida tabiat qo‘yniga, shaharlarga musiqiy sayohatga asoslanadi.

Hozirgi paytgacha keng qo‘llanilib kelingan dars turlaridan:

1. Tashkiliy darslar.
2. Aralash darslar.
3. Dominantali (darsdagi biror faoliyat turi–qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqiy ijodkorlik–boshqalaridan ustunroq bo‘ladi) darslar.
4. Kontrol–tekshiruvchi darslar.
5. Kompleks darslar.
6. Intervyu darslari.
7. Himoya darslari.
8. YAkunlovchi darslar.

Endi har bir dars turiga izoh berib o‘tamiz.

Konsert darslari – o‘quvchilardagi bor musiqiy–nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, o‘zlari va boshqalarning bilimlariga baho berish, sahnada o‘zini tutishni o‘rganish, jamoa bo‘lib kuylash va yakkanavozlik malakalarini shakllantirish, bolalar musiqiy cholg‘ularida jo‘r bo‘lish, raqs elementlarini bajarish va

hokazolarga keng imkoniyat yaratadi. Bunday darslarni asosan bir chorak tugab, boshqasi boshlanganda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu dars turida o'quvchilar chorak davomida o'zlari o'rgangan qo'shiqlari asosida «konsert» o'tkazadilar. Bunday darslar o'quvchilar bilim darajasini aniqlashga va baholashga keng imkoniyat beradi. Dars avvaldan rejalashtiriladi. O'quvchilar o'zlari o'rgangan qo'shiqlarini tayyorlab keladilar. O'qituvchi avvalgi darsida har bir o'quvchiga vazifa belgilab bergan bo'lishi kerak. Darslar hammaning birgalikda davlat madhiyasini kuylashlaridan boshlanadi. Bu darslar shunisi bilan ahamiyatliki, o'quvchilar o'zlarining barcha ijodiy qobiliyatlarini, ijrochilik mahoratlarini ishga soladilar. Bunday darslar o'quvchilarning musiqiy did va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga asos soladi. Shuningdek, o'quvchilarda sahnada o'zlarini tuta olish, artistizm, jamoa bo'lib kuylash, mustaqillik, tashabbuskorlik malakalari shakllanadi.

O'qituvchi darsdan bir dars avval o'quvchilarga qanday qo'shiq kuylashlarini taqsimlab bersa, qaysi qo'shiqdan keyin qaysinisi ijro etilishini taqsimlab bersa, darslar aniq bir tizimga asoslangan holda, tartibga rioya qilingan holda uyushtiriladi. Bunday darslarda o'qituvchi deyarli barcha o'quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. «Konsert» darslariga qo'shiqlarining mazmuniga mos holda kiyinib kelish o'quvchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi va darsning samaradorligi ortadi. Konsert darslarda o'quvchilar o'zlarining bor bilim va iste'dodlarini ishga solishlariga imkon yaratilishi kerak. Masalan, kimdir yaxshi qo'shiq kuylasa, kimdir raqsga tushishni o'rniga qo'yadi, kimdadir aktyorlik qobiliyati kuchli. O'qituvchi ziyrak bo'lgan holda har bir o'quvchining hohish-istaklarini, imkoniyatlarini hisobga olib konsert uyushtirishi zarur. Konsert darslarni biror bir kompozitor yoki yozuvchining tavallud kuniga yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bunda konsert darsda shu ijodkor yaratgan asarlar ijro etiladi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilardan biror bir boshlovchi muallifning hayot va ijodi haqida so'zlab beradi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va sinfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna sasrlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini o'zbek xalq cholg'u asboblaridan bilishini mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodi, faoliyati, musiqiy atama va iboralari, musiqiy janrlari, ustozona, mumtoz musiqa, SHarq xalqlari musiqasi va jahon xalqlari musiqasi ularning taniqli namoyondalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati o'zbek musiqasida mahalliy uslublari va uning ijrochilari, o'zbek milliy musiqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishini nazoratda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarda nazariy ham amaliy mashg'ulotlari vositasida bajariladi.

Musiqa tinglash. Jamoa bulib kuylash. Musiqa savodi. Musiqa ijodkorligi

*Musiqa tinglash* va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarini ifodalash imkoniyati yaratiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon va qardosh kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublari o'z folklor qo'shiqlari. Maqom aytim yo'llaridan namunalar.

*Jamoa bo'lib kuylash* faoliyati o'quvchilarni musiqa o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshtib kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rovoqlik qilishga kirishadi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon va qardosh kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublari o'z folklor qo'shiqlari. Maqom aytim yo'llaridan namunalar.

*Musiqqa savodi* barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muximdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mazmundagi asar o'rganiladi va uning hususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. SHu bois, musiqqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarni umumiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqqa, nota savodi) tashkil etadi.

*Musiqqa tinglash* yakkanavoz va jo'r ovoqlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakoralari asarlaridan namunalar tinglash va boshqalar.

SHu o'rinda shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinliki, o'zbek xalqining necha asrlardan buyon bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyati durdonalari bugunga kelib to'liq tiklangan va notalashtirilgan. Bunda marhum ulug' ustozlarimizning xizmatlari beqiyosdir. YUz yillar o'tgandan so'ng ham bu meros yangi-yangi to'ldirilgan ijrolar bilan sayqallanib boraveradi, xalqimizning muqaddas ma'naviy boyligi bo'lib qolaveradi. Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri shuki, inson kamolotga erishib borgani sayin san'atning yaratuvchan qudratini tobora chuqurroq his eta boshlaydi. San'atkorning jamiyatda tutgan o'rni, ahvoli va san'atga bo'lgan munosabati jamiyat ma'naviy salohiyatining o'ziga xos mezoni sifatida baxolanishi bejiz emasdir.

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, musiqiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqimizning badiiy-estetik madaniyati, jumladan, musiqiy madaniyati tarixida

o'chmas iz qoldirgan har bir san'atkor, hech shubhasiz, o'zi yashagan davr ruhini, muxlislarning estetik didi, ma'naviy ehtiyojlari va salohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirgan, o'z asarlari bilan zamondoshlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan.

Mustaqillik mafkurasini yaratishda, uning bosh bo'g'ini bo'lmish ma'naviy madaniyatni yoshlar o'rtasida targ'ib etishda musiqiy madaniyatimiz durdonalarini va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk san'atkorlar hayoti va ijodini chuqur o'rganish katta tarbiyaviy va mahrifiy ahamiyatga egadir.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Hozirgacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot metodlariga tayanib fikr yuritsa bo'ladi: 1) kuzatish metodi; 2) suhbat metodi; 3) bolalar ijodini o'rganish metodi; 4) test, so'rovnomalar metodi; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi; 6) eksperiment-tajriba sinov metodi; 7) statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi; 8) matematika-kibernetika metodi;

**Kuzatish metodi** Pedagogikaning kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo'ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni ta'hlil etadi va tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat tug'diradi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

### **Su'hat metodi**

Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida su'hat metodidan foydalaniladi. Odatda, su'hat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guru'li tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda su'hat metodini tadbiiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar ta'hlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. SHuningdek, tadqiqotchining su'hat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, su'hatdoshining ru'hiy holatiga qarab su'hat o'hangini moslashtira bilishi g'oyat mu'himdir. Bunda:

- 1) su'hat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqti va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) su'hat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo'lishi;
- 4) su'hat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- 5) ma'hadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) su'hatdoshning kimligini, ha'arakter hususiyatini esdan chiqarmaslik;

7) suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

### **Bolalar ijodini o'rganish metodi**

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. SHu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo.

### **Test, so'rovnomalar metodi**

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida etakchi metod so'rovnoma va test savollardan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa (fransuzcha "tekshirish" ma'nosini bildiradi) metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston, ta'bir joiz bo'lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test metodini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tadbiiq etdi. Test

sinovlaridan koʻzlangan maqsad oz vaqt ichida oʻquvchilarning bilimlarini yoppasiga aniqlash, baholashdir.

Bunda test savollarini qanchalik aniqlik va aql bilan, fikrlash jarayoniga zarar tegmaydigan qilib tuzish ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining oʻrni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, oʻquvchilarning mustaqil fikrlarini oʻstiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

### **Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi**

Respublikamiz rahbariyatining xalq taʼlimi yuzasidan qabul qilingan qaror va yoʻl-yoʻriqlari asosida maktabda bajarilgan va bajarilayotgan taʼlim-tarbiya ishlarini yuritilgan hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali oʻqituvchilar va oʻquvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq maʼlumotlar olinadi. Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; oʻqituvchi va oʻquvchilarning soni va sifati; oʻquvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishda oʻquvchilarning umumiy miqdori, uning oʻsishi yoki kamayish sabablari tavsifi, oʻquvchilarning fanlar boʻyicha oʻzlashtirish darajasiga, sinfda qolishning oldini olish, ragʻbatlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktabning moddiy bazasiga eʼtibor beriladi.

Ularni tahlil qilish, hisobotlarni koʻzdan kechirish, toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini aniqlash, oʻquvchilar faolliklarining oʻsishi bilan taqqoslash, ilgʻor pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishi va nihoyat, oʻqituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora, tadbirlar belgilash maqsadida oʻtkaziladi.



### **3.2. Musiqa darslarida o`qituvchning musiqiy pedagogik mahorati va tajriba sinov ishlari natijalari**

Pedagogik maʼhorat- bu oʻquv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yoʻnaltirish, talabalarda (oʻquvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur boʻlgan faoliyatga moyillik uygʻotishdir.

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, yaʼni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bogʻliqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yoʻnaltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni taʼminlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga oʻtkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni roʻyobga chiqaradi.

Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bogʻliq. Bunda pedagogik maqsad oʻquvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog oʻz faoliyati maqsadini va unga erishish yoʻllarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish oʻquvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote taʼkidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda soʻz ham, tinglovchilarni maʼliyo qilish ham oʻz-oʻzidan kelaveradi».

Pedagogik (taʼlim-tarbiya) jarayonida oʻquvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo oʻquvchi kelajagi tomon yoʻnaltirilgan boʻladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar oʻz faoliyatining mantiqini oʻquvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

SHunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining oʻziga xosligi oʻqituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini toʻla anglab, oʻz shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining «oʻsib», uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha ba'ho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. SHuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. SHu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan

tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. SHuning uchun ham pedagogik ma'horatni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Pedagogik ma'horat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo'naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish);

- pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik ma'horat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi

muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

SHunday qilib, pedagog-muallim o'z ma'horatiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish.
2. Maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilish.
3. Pedagogik amaliyotda faol igshtirok etish va uni samarali o'tkazish.
4. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish.
5. O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

Musiqqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqiqlik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. SHu bois, musiqqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy murosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisobdalandi. SHuningdek o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, ularni badiiy ihtiyotlarini qondirish musiqqa ta'lim – tarbiyasini asosiy vazifasini tashkil etadi. SHu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuziga molik bo'lgan madaniy diridonadaridan bahramand bo'lishni ta'minlaydi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlaridashaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. CHunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega,favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etuvchimalakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy extiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqazo etmoqda.

SHu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedogogika fanining vazifalari doirasi kegayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiyhayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jijatdan umumlashtirish, hulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedogogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etigan hizmat qiladi.

**Vizual vositalar** Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o'quvchilar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san'at asarlari, video, kino tasvirlar, turli buyumlar va boshqalar kiradi.Ko'rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo'llanilishi talaba-o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkoniyatini beradi.

**Audio vositalar** Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi.Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovoqli video

tasvirlardan foydalaniladi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

**Tabiiy vositalar** Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Talaba-o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

O'qituvchi avvalo o'quvchilarni ijro etiladigan musiqa asarlariga qiziqtirish, jalb qilish va ko'nikma hamda malakalarini oshirishi lozim bo'ladi. Asarni ifodali ijro etish va pedagogning obrazli tushuntirishi mana shunga yo'llangandir. Shundan so'ng qo'shiqni o'rganish jarayonida qo'shiq aytish malakasi egallanadi, ovoz va qobiliyat o'sadi har bir keyingi darslarda yangi topshiriqlar qo'yiladi: qo'shiqning qiyin joylari alohida kuylanadi, matnni ayrim frazalari navbatma-navbat ijro etiladi.

### **Tajriba sinov ishlari natijalari**

Olingan javoblarni tahlil qilish, tadqiqot jarayonida olib borilgan ishlarning samaradorligini aniqlash, zamonaviy pedagogic te[nologiyalar vositasida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy ishlar natijasida bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni aniqlovchi nizomlar ishlab chiqildi.

1. O'quvchilarni musiqa asarlarini o'rganish, tinglash va nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash malakalarini o'rganligi;

2. O'rganilayotgan, tinglanayotgan asarlar g'oyaviy-badiiy mazmuni haqida o'z fikrlarini bildira olishlari;

3. Asarlarni eshitib, uning janri, o'lchovi, xarakteri, lad-tonalligi, ijrochilik uslubi (xususiyatlari) haqida ma'lum tushunchalarni bildira olishlari;

4. Asar mualliflari ijodi faoliyatidan xabardorligi;

5.Asar tuzulishi, kim uchun, qanday jamoa uchun yozilganligi, murakkablik darajasini his qilish, notanish so'zlar ma'nosini bilishga qiziqishi (bilishi); kuchayganligi;

6.Asardagi dinamik tuslarni asar badiiyligini ta'minlashdagi rolini anglashlari;

7.Asarni ijro etilishidagi milliy ijrochilikka xos nola, qochirim, bezak, shtrixlarni to'g'ri tushunishlari va ularni aniqlay olishlari;

8.Ijrochilar mahoratiga, asarning badiiy qimmatiga baho beraolishlari.

Shundan so'ng biz tadqiqotimiz davomida biz amalgam oshirilgan ishlarimiz, ya'ni o'quvchilarni musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy-badiiy didini shakllantirishda samarali deb hisoblangan ish usul va shakllarini o'zida mujassam etgan dastur asosida tanlangan maktablardagi sinflarda amaliy tajribalarimizni amalga oshirishga kirishdik. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan keyin bizning maxsus dasturimiz asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni musiqiy-badiiy didini o'sishida samara berayotganini guvohi bo'ldik.

Tajribalar natijasida musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan tinglanayotgan, o'rganilayotgan, kuylanalayotgan qo'shiq va kuylar bo'yicha tahliliy suhbatlar, savol-javoblar, nazariy, badiiy tahlil, qo'shimcha ma'lumotlardan o'rinli foydalanish va bu ishlarni tizimli ravishda olib borilishi o'quvchilarga kuchliroq ma'naviy-estetik ta'sir etishi bilan ularni musiqiy-badiiy didlari shakllanishiga yuqori darajada ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Bundan tashqari tajribalarimiz davomida o'quvchilarni xalq musiqasi, zamonaviy turli janrlardagi qo'shiqlarni kuylash, ular haqida ko'proq ma'lumot olish, bilish, o'z bilimlarini ko'pchilik oldida, maktab sahnasida, turli bayram tadbirlarida, konsertlarda namoyish etishga bo'lgan xoxishlari oshib bordi. Bu esa ishimizning samaradorligidan darak beradi.

Shundan kelib chiqqan holda tajribalarimizning asosiy shakllantiruvchi bosqichida o'quvchilarni musiqa mashg'ulotlarida musiqiy- badiiy didni shakllantirishga yo'naltirilgan turli tadbirlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar tadbir etilgan darslar, darsdan tashqari musiqiy faoliyatlarga o'quvchilarni keng jalb etishga harakat qildik.

Tajribalar samaradorligini, ularning o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini o'sishiga ta'sirini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqdik. Bu mezonlar tajriba-kuzatuv ishlari boshlanishi va tugallanishi oralig'ida o'quvchilarning badiiy-estetik, ma'naviy va musiqiy didlarini o'sishida ro'y bergan sifat o'zgarishlarni baholash imkonini berdi.

O'quvchilarning musiqa san'atiga qiziqish va munosabatlari, bilim, malaka, tushuncha, tasavvur, idrok etishlari, taassurotlarini to'g'ri ifodalay olish dinamikasi, musiqiy janrlar, turli mavzu va murakkablikdagi asarlarni o'ziga xos jihatlarini farqlay olish, g'oyaviy mazmuni baholash, musiqiy asarni kuylash, tinglash, tahlil qilish jarayonida ularning tuzilishi, ijrochilik uslublari, g'oyaviy mazmuni, ifoda vositalari, badiiy darajasi haqida bilimlarini aniqlashga harakat qildik.

O'quvchilarning musiqiy, badiiy didini shakllanganlik darajalari quyidagi uch ko'rinishda aniqlandi:

- 1) **Yuqori daraja** – barcha savol, topshiriqlarga ijobiy javob qaytarilganligi, o'quvchilarni asarlarga o'z munosabatini bildirish va baholash talab darajasida ekanligi;
- 2) **O'rta daraja** – savol va topshiriqlarga qisman to'g'ri javob berganligi, ayrim savollarga javoblar va amaliy topshiriqlar qoniqarli emasligi, o'quvchining harakati sezilib tursada, ayrim o'rinlarda chalkashlik va xatolarga yo'l qo'yganligi;
- 3) **Past daraja** - savol va topshiriqlarga javoblar 40 % dan kamligi, amaliy topshiriqlarga javoblarni qoniqarsiz ekanligi.



Musiqa darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va ulardan kutilgan natijalar quyidagi holat-mezonga muvofiq aniqlandi. Natijalar umumlashtirilib, tahliliy xulosalar natijasida quyidagi ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi, (1-2-jadvallar).

1-jadval.

**Tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili.**

**(Samarqand San'at kolleji va pedagogika kollejlari).**

Guruhlar	O'quvchilar soni	Badiiy didni shakllanganlik darajasi					
		Yuqori		O'rta		Past	
		Sinov boshi	Sinov oxiri	Sinov boshi	Sinov oxiri	Sinov boshi	Sinov oxiri
Tajriba		12/	22/	18/	26/	30/	12/17%
104-guruh	30	21.2%	38.4%	30.3%	44.7%	49.5%	
Nazorat		15/	14/23%	18/	29/49%	27/44%	17/28%
104-guruh	30	25.4%		30.6%			
Jami:		27/23%	36/	36/	55/	57/47%	29/21%
	60		30.8%	30.4%	44.7%		

Biz o'quvchilarning badiiy-estetik didlarini shakllanganlik darajalaridagi o'zgarishlarni ifodalovchi ma'lumotlarni matematik-statistik usulda tahlil qilib tegishli xulosalar chiqardik.

2-jadval.

Guruhlar	BAHOLAR		
	Past	O'rta	Yuqori
Tajriba	n=16.9%	$N_1=44.7\%$	$N_3=38.4\%$
Nazorat	$M_1=28\%$	$M_2=49\%$	$M_3=23\%$

Bu jadvalda biz  $n_1$  va  $m_1$  lar orqali tajriba va nazorat guruhlarining sinov oxiridagi milliy musiqa an'analariga qiziqish, ularni farqlay va baholay olish darajalarini (% hisobiga) belgilab oldik. Bundan tashqari biz  $x_1$  va  $n_1$  lar orqali mos ravishda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilab olib, 2-jadval asosida quyidagi 3-tanlanma taqsimoti jadvalini tuzub olamiz:

3-jadval.

**O'quvchilarning badiiy-musiqiy didlarini shakllanganlik darajalari taqsimoti.**

Tajriba guruhleri bo'yicha	Nazorat guruhleri bo'yicha
$X_1=3, 4, 5$	$N_1 : 3, 4, 5$
$P_1:P_1=0.169; P_2=0.447; P_3=0.384$	$G_1=G_1=0.28; G_2=0.49; G_3=0.23$

Tajriba-sinov guruhlarida olib borilgan ishlar o'quvchilarni musiqiy bilim, tushuncha, malakalari hamda musiqiy-badiiy didlarida ijobiy o'sish bo'lganligiga olib keldi. Bunda nazorat-sinov guruhlaridagidan ancha farq qilishi ayon bo'ldi.

F8 va F9 lar orqali taqsimot qonunlarini belgilab olib, asosiy:  $H_0 : F_8 = F_9$  gepotezaga qarama-qarshi muqobil  $H_1 : F_8 \neq F_9$  gepotezani oldinga surdik. Bu gepotezalarni tekshirish maqsadida Pirsonning quyidagi ikki tanlanma  $X^2$  statistikasidan foydalandik:

$$X^2 = \sum_{i=1}^3 \frac{(n_i - m_i)^2}{n_i - m_i}$$

Demak,  $X^2 = 6,8 > 5,99 = t_{0,95}(2)$  bu esa o'z navbatida 95% ishonch bilan  $H_0$  gepotezani rad etib,  $H_1$  gepotezaning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan ishlar nazorat guruhlariga nisbatan samarador ekanini mo'ramiz. Buni isbotlash maqsadida dastlab har ikki guruhlardagi tanlanma baholashlarni 3-jadval asosida hisoblaymiz

$$v_x = \frac{S_x}{X} * 100\% = \frac{0,68}{4,22} * 100\% = 16,11\%$$

$$v_y = \frac{S_y}{Y} * 100\% = \frac{2,28}{3,95} * 100\% = 57,67\%$$

Bundan ma'lum bo'ladiki, agar variatsiya koeffitsenti qiymati 30 % dan oshmasa o'rta arifmetik qiymat no'malum-nazariy o'rta qiymatni ifoda etadi. Bunda  $V_x = 16.11\% < 30\% < 57.67\% = V_y$ . Shu tariqa tajriba guruhlarida olib borilgan ishlar nazorat guruhlaridan samarali ekanligi asoslandi.

Respublikamizning deyarli barcha ta'lim-tarbiya muassasalari statistika ma'lumotlari bilan qurollangan, kelajak rivojlanish rejalariga ega. Respublikamizning mustaqil bo'lguniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin ortirib, qo'shib yozishlar xalq ta'limi tizimida ham mavjud edi. Ularning nazorati bo'shligi va ob'ektiv emasligi xalq ta'limi sohasidagi chuqur islohot o'tkazilishiga olib keldi. Demak, statistik ma'lumot aniq, hayotiy bo'lsa bajarilayotgan ta'lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori bo'ladi.

### 3-bob yuzasidan xulosa

Mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning oʻz ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarishi yurtimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga toʻliq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish boʻyicha keng koʻlamli, aniq yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida oʻsib kelayotgan avlodning bugungi kunda taʼlim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiy tizimdagi yoʻnalish va mutaxassisliklar boʻyicha davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari, oʻquv metodik adabiyotlarni qayta koʻrib chiqish va takomillashtirishga, Shuningdek, taʼlim tizimi samaradorligini oshirish maʼnaviy ragʻbatlantirishning tizimini yaratish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

## XULOSA

Bugun biz dunyodagi rivojlangan davlatlar bilan mustahkam aloqa o‘rnatib, yurtimizda erkin va farovon jamiyat barpo etayotgan ekanmiz, san’atni, musiqani o‘zimizning ma’naviy hamrohimizga aylantirmasdan turib, ana shu yuksak marralarga erishishimiz, hayotimizni yanada mazmunli, har tomonlama mukammal qilishimiz mumkin emas, albatta. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishini, komil inson shaxsining shakllanishini milliy musiqa merosimizsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Evropa hamda AQSHda ta’lim tizimini islox qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shar-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi.

Shuningdek, musiqa darslarida san’at ustalari va namoyondalari ijrosida milliy kuy qo‘shiqlarimiz asarlari musiqiy jamlanmasi ya’ni, musiqiy fonoteka (musiqiy audio, video plastinkalari va boshqa yozuvlari to‘plami)ni tashkil etish, bundan tashqari, milliy musiqiy merosni tahlil, targ‘ib va tadqiq etishga qaratilgan maxsus ommabop, musiqiy ko‘rsatuvlarni tashkil qilish,

Kollej bilan o‘quvchilari mashhur san’atkorlar bilan tez-tez “Ustoz saboqlari” mahorat darslarini yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilar bilan davra suhbatlari o‘tkazish darkor.

Pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san’at asarlari, video, kino tasvirlar, turli buyumlar va boshqalar kiradi. Ko‘rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo‘llanilishi talaba-o‘quvchilarga o‘rgatish kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmuni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali tez, aniq va to‘g‘ri tushuntirish imkoniyatini beradi.


Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko‘p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori

samaradorlik bilan foydalana bilishga bog‘liq. Bu vositalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish o‘qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog‘liqdir. Respublikamiz miqyosida muntazam ravishda uyushtirilayotgan ko‘rik-tanlovlar, bir jihatdan, buyuk san‘atkorlarimizning musiqa madaniyatimizga qo‘shgan hissasini, ularning o‘ziga xos mahorat va iste‘dod qirralarini aniqlashga, ommalashtirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalq orasida mumtoz san‘atimiz va san‘atkorlarimizning ijodini keng tarqalishi va kelajakda yanada davom ettirib, rivojlanishiga olib keladi degan umiddamiz. Bu nodir ma‘naviy xazinani yoshlar ongi, faoliyatiga zamonaviy vosita va uslublar asosida singdira olish zarur. Ana shunda avlodlar va qadriyatlar vorisligi, an‘analarning umrboqiyligi, musiqa san‘atimiz istiqboli, ravnaqi va zamonaviyligini ta‘minlagan bo‘lamiz.

### «Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya (oʻyinning umumiy rejasi) boʻlib, u oʻquvchilarni biron bir mavzuni chuqur oʻrganishlariga yordam berib, oʻquvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma- ketlik bilan uzviy bogʻlangan holda tarmoqlashlariga oʻrgatadi.

Bu metod biron bir mavzuni chuqur oʻrganishdan avval oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek oʻtilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi oʻzlashtirish, umumlashtirish hamda oʻquvchilarni shu mavzu boʻyicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi.



### «Bumerang»

Mazkur texnologiya bir mashgʻulot davomida oʻquv materialini chuqur va yaxlit holatda oʻrganish, ijodiy tushunib etish va mavzuni erkin egallashga yoʻnaltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega boʻlgan mavzularni oʻrganishga yaroqli boʻlib, oʻz ichiga ogʻzaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashgʻulot davomida xar bir ishtirokchilarning turli


topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan o`quvchi yoki o`qituvchi rovida bo`lishi, kerakli ballni to`plashga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi; g`oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og`zaki shakllarda bayon qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

- Talaba (yoki o`quvchi)lar kichik guruhlarga ajratiladi;
- Talaba (yoki o`quvchi)lar mashg`ulotning maqsadi va tartibi bilan tanishtiradi;
- Talaba (yoki o`quvchi)larga mustaqil o`rganishlari uchun mavzu bo`yicha material tarqatiladi;
- Berilgan matnlarni o`quvchilar tomonidan mustaqil o`rganiladi;
- Bilimlarni anialash uchun guruh ichida ichki nazorat o`tkaziladi, savol javob o`tkazadilar;

### **Pedagogik texnologiyalardagi asosiy tarkibiy elementlar**





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. 1997 y. 6-jild,
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000. 80 b. 46-b.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot — pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000, 471-bet.
4. Karimov I.A. Milliy istielol mafkurasi -xalq e'tieodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: «O'zbekiston», 2000, 12- bet
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 12-6.
6. I.A.Karimov «O'zbekiston taraqqiyot yo'lida».T.:«O'zbekiston» 1994 yil.
7. I.A.Karimov «Turkiston umumiy uyimiz». T.: «O'zbekiston» 1994 yil.
8. I.A.Karimov «Ma'naviyat yuksalish yo'lida». T.: «O'zbekiston» 1998 yil.
9. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat»
- 10.Sharipov G. «O'rta III-IV sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun
- 11.metodik qo'llanma» 2001 yil.
- 12.Ibragimov O. «4-sinf musiqa darsligi» 2002 yil.
- 13.Nurmatov H. «2-sinf musiqa darsligi» 2003 yil.
- 14.Inomova M. «Pedagogika ma'ruzalar matni» Toshkent 2000 yil.
- 15.Sarimsoqov B.«O'zbek fol'kloriga ocherklar». Toshkent «Fan» 1989 y.
- 16.Yu.Rajabiy «Musiqa merosimizga bir nazar». Toshkent «G'.G'ulom» 1978
- 17.«Milliy istiqlol g'oyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar» 2001 yil.
- 18.D.F.Omonullayeva, H.Nurmatov va boshqalar. «Boshlang'ich ta'lim  
a. DTS dasturi» 1999 yil.
- 19.Boymirzayev X. va boshqalar. «Musiqa o'rganish metodikasi». T. 1995
- 20.Sharipova G.M. «Musiqa o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma T. 2008
- 21.«Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent «O'qituvchi», 1997 yil.

22. Pedagogika fani dasturi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti. T., 2001. Tuzuvchilar: M. Quronov, U. Oltinov.
23. Ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlarini muvofihlashtirish kengashini tuzish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 2000 yil 10 mart. №84.
24. «Milliy istihlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bUyicha maxsus metodologik komissiya majlisining bayoni. 2001 yil 3 mart.
25. Xojib, Yusuf Xos. qutadg'u-bilig. (To'rtliklar). T.: G. Gulom nomli badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1971 yil. 160 b. 25 bet.
26. Djamalova D.A. Muzikalno – poeticheskie traditsii Vostoka v povushenii effektivnosti muzikalnogo vospitaniya uchahixsiya. (Na materiale vneklassnoe rabotu s uchashimsya 8-9 klassov sredney obsheobrazovatelnoy shkolu.) 2002 g.
27. Balabekov E.O. Vospitatelnye vozmozhnosti muzikalnykh folklornykh kollektivov. Shumkent 1996 g.
28. Qosimova Z.X. Talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedogogik asoslari. (Oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida). T. 2004 y.
29. Yuldasheva S.T. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogik asoslari. T. 2007 y.
30. Umarov B.J. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonida talabalarda mustaqillik taffakurini shakllantirishning pedogogik asoslari. T. 2005 y.
31. Saipova D.YU. Musiqiy, nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. (Boshlang'ich sinflar misolida) T. 2007 y.
32. Toshmatov O'. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. / Respublika metodika va axborot markazi – T.: 2006. -102b.
33. N. Komilov. «Tasavvuf yoki komil inson axloqi». -T., «Yozuvchi». 1996 yil.
34. I. Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir». T., «O'zbekiston Davlat Badiiy» nashriyoti. 1963 yil.

- 35.A.Mansur. «Qur'oni Karim» o'zbekcha izohli tarjima. -T., «G'.G'ulom» nashriyoti. 1992 yil.
- 36.Qori Nizomiddin bin mulla Xasan. «Ilmi axloq». -T., «Yozuvchi». 1994 yil.
- 37.O'zbekiston Prezidentining Farmoni. «Respublikada musiqiy ta'limni madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida». -T., «Guliston - №2». 1997 yil.
- 38.O'zbekiston Prezidentining Farmoni. «Estrada san'atini tartibga solish to'g'risida». -T., «Guliston -№2». 1998 yil.
- 39.O'zbekiston Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston badiiy akademiyasini tashkil etish to'g'risida». -T., «Guliston - №2». 1997 yil.
- 40.O'zbekiston Prezidentining Farmoni. «O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida». -T., «Guliston - №2». 1997 yil.
- 41.O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining besh yilligiga bag'ishlangan «O'zbekistonim - Vatanim manim» mavzusida qo'shiqlar jo'rligini o'tkazish to'g'risida. -T., «Guliston - №2».
- 42.«O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida». -T., «Guliston - №2».
- 43.O'zbekiston Prezidentining Farmoni. «O'zbeknavo» gastrol konsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida. -T., «Guliston - №2». 1996 yil.
- 44.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida». -T., 2008 yil. 7 yanvar.
- 45.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «O'zbekiston Davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida». -T., 2008 yil. 28 aprel.

46. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T., «Sharq» nashriyoti. 1997 yil. 32-61 betlar.
47. 1-4 sinflarda «Musiqqa madaniyati» darslari dasturi. «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi». -T., «Sharq» nashriyoti. 2008 yil. 258-289 betlar.
48. 7-sinflarda «Musiqqa madaniyati» darslari dasturi. «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi». -T., «Sharq» nashriyoti.
49. H.Nurmatov. «Musiqqa va estetika madaniyat». Nizomiy nomli TDPU. 1992 yil.
50. S.Inomxo'jayev va E.Umarov. «San'at va axloq». -T., «O'zbekiston». 1971 yil. M.Otanazarov. «Navoiy navolari» maqola. -T., «O'zbekiston adabiyoti» gazetasi. 1989 yil.
51. X.Xomidiv. «Ko'hna sharq darg'alari». -T., 1999 yil.
52. X.Xomidiv. «Qirq besh alloma hikoyati». -T., 1995 yil.
53. O.Matyoqubov. «Maqomat». -T., 2004 yil.
54. A.Oripov. «Navoiyni anglash». «O'zbekiston va san'ati» gazetasi. 2007 yil. 9 fevral.
55. A.Qayumov. «Navoiyni anglash». «Xalq so'zi» gazetasi. 2007 yil. 9 fevral.
56. Z.Karimova. «Navoi v muzpse». -M., 1980 god.
57. B.Ziyomuhamedov. «Ma'rifat asoslari». -T., «O'zbekiston». 1998 yil.
58. Sh.Isroilov. «Milliy qadriyatlar». «Maktabgacha tarbiya» jurnali. 1992 yil. 3-son.
59. «Xalq so'zi» gazetasi. 2007 yil. 29 sentyabr soni.
60. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». -T., 176-bet.
61. «Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimizdir». -T., «Xalq so'zi». 2010 yil. 28 yanvar.
62. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni. «Vasiyatnoma». -T., G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. 1993 yil.

63. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. «Hadis». 1-jild. «Al-Jome as-Sahih». -T., «Qomuslar» bosh taxririya. 1991 yil.
64. Utmishda arablar yashaydigan yurtlardan tashqari Sharq mamlakatlari «Ajam» deb yuritilgan.
65. G. Alimatova. «Al-Farobiy va musiqa». -M., «O'zbekiston san'ati». 1984 yil. 4-son.
66. M.M. Xayrullayev. «Farobiy». -T., «Fan» nashriyoti. 1963 yil.
67. A.F. Nazarov. «Musiqa ijodiyoti masalalari». -T., «Kamalak». 1997 yil.
68. Abu Ali ibn Sino. «Ash-Shifo». -M., «O'zbekiston san'ati». 1980 yil. 9-son.
69. F. Inog'omjonova. «Musiqiy bilimlar to'plami» maqolalar to'plamidan. -T., «Fan» nashriyoti. 1980 yil.
70. F. Inogomjonova. «Abu Ali ibn Sinoning musiqiy risolalari». -T., «Sharq yulduzi». 1973 yil. 8-son.
71. Abu Ali ibn Sino. «Tib qonunlari». 1-kitob. -T., «Fan» nashriyoti. 1983 yil.
72. A. Jomiy. «Risolai musiqiy». -T., 1997 yil.
73. Kaykovus Vashmgir. «Qobusnoma». -T., «O'qituvchi». 1967 yil.
74. T. Ye. Solomonova. «O'zbek musiqa tarixi». -T., «O'qituvchi». 1981 yil.
75. «Xorazm maqomlari». 3-tomlik. 1-tom. G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. -T., 1981 yil.